O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

BATIR DOSIMBETOV

XALQ CHOLG‘ULARIDA IJROCHILIK (nay)

O‘zbekiston davlat konservatoriyasining
5150700 – bakalavriat bosqichida
ta’lim olayotgan 2 kurs talabalari uchun
o‘quv qo‘llanma

Toshkent – 2021

UO‘K: 781.7(075)
KBK: 85.315.5(5O‘)
D 56

B.Dosimbetov Xalq cholg‘ularida ijrochilik (nay). *O‘quv qo‘llanma*. – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 – 248 b.

ISBN 978-9943-7526-5-8

Mas’ul muharrir:

Sherzod Akbarovich Umarov – O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Orkestr dirijorligi” kafedrasining dotsenti.

Taqrizchilar:

Ahadjon Boqilloevich Mamadaliyev – O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Xalq cholg‘ularida ijrochilik” kafedrasining dotsenti.

Yusuf Kadirovich Vaxidov – O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi” kafedrasining katta o‘qituvchisi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan (Buyruq 237. 31.05.2021).

Nay cholg‘usida murakkab asarlarni ijro etishda nimalarga e’tibor berish kerak?

O‘zbekiston davlat konservatoriyasining “Xalq cholg‘ularida ijrochilik” kafedrasida – nay mutaxassisligi bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan ushbu o‘quv qo‘llanmaga, O‘zbekiston kompozitorlarining yirik shaklda yozilgan asarlari kiritilgan. Unda asarlarning ijrochilik tahlili hamda uslubiy ko‘rsatmalar o‘rin olgan bo‘lib, yuqoridagi savolga mukammal javob topasiz.

Shuningdek, o‘quv qo‘llanmadan musiqaga ixtisoslashgan o‘quv yurtlaridagi talabalar va professional ijrochilar ham, o‘z konsert repertuarlarini boyitish maqsadida foydalanishlari mumkin.

На что следует обращать внимание при исполнении сложных произведении на нае?

Этот учебник – предназначен для студентов, специализирующихся на най кафедры исполнения на народных инструментах Узбекской государственной консерватории, где включены произведении композиторов Узбекистана написанные в крупной форме. Он включает в себя исполнительский анализ и методические рекомендации, где вы найдете ответы на поставленный выше вопрос.

Учебник также может быть использован студентами-музыкантами и профессиональными исполнителями для обогащения своего концертного репертуара.

What should you pay attention to when performing a complex piece on a nai?

This textbook is intended, for students specializing in the nai department of folk instruments performance of the Uzbek State Conservatory, which includes works by Uzbek composers written in large form. It includes performance analysis and guidelines where you will find answers to the above question.

The textbook can also be used by music students and professional performers to enrich their concert repertoire.

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun[1] va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”[2] ijrosidan kelib chiqqan holda ta’lim muassasalarida musiqa ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish, yoshlar iste’dodini har tomonlama kamol toptirish, madaniy saviyasini yuksaltirish, ularning milliy va jahon musiqa san’atining yuksak namunalaridan bahramand bo‘lishi uchun zarur sharoit yaratish kabi vazifalar ham bosqichma-bosqich ravishda hayotga tatbiq etilayapti. Ana shunday keng ko‘lamli ishlarning samarasi o‘laroq bugungi kunda yurtimizda ajdodlarimizning boy musiqiy merosini, qadimiy va serqirra musiqa madaniyatimizni o‘rganish va targ‘ib etish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ushbu bebaho merosdan bahramand etish barobarida ularga milliy va jahon musiqa san’ati durdonalari keng o‘rgatilmoqda.

Bu bejiz emas, albatta. Zotan, musiqa millatning o‘ziga xos qiyofasini belgilovchi muhim omillardan biri sanalib, inson ruhiy-ma’naviy kamoloti, tafakkurining rivojlanishida, qalbiga yuksak va beg‘ubor tuyg‘ularni singdirish, uni ezgu va xayrli ishlarga da’vat etishda, ma’naviyatini yuksaltirishda beqiyos ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan fikr yuritadigan bo‘lsak, yoshlarimizning ma’naviyatini yuksaltirish, ularni teran tafakkur, ezgu fazilatlar sohiblari etib tarbiyalashda, qalbi va ongida ona Vatanga muhabbat, milliy an’ana va qadriyatlarimizga sadoqat tuyg‘ularini mustahkam qaror toptirishda musiqa san’atining o‘ziga xos o‘rni bor. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, "Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan", deya ta’kidlaydi.[3] Bugungi kunda yoshlarning ta’lim olishi bilan birga, ularning tarbiyasiga ham Hukumatimiz tomonidan katta e’tibor berilmoqda. Zero, oxir oqibatda o‘zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo‘lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin. Istiqlolimizning tayanchi bo‘lishi ma’naviy barkamol ham ma’nan sog‘lom avlodni tarbiyalab yetishtirishda musiqa san’atining o‘rni nihoyatida beqiyosdir. O‘zbek xalqi boy madaniy tarixga ega. Bu madaniy meros tarixiy taraqqiyot mobaynida shakllangan ma’naviy boyliklarni, shu jumladan musiqa san’atini ham qamrab oladi.

Ushbu o‘quv qo‘llanma ham, avvalo: davlatimiz siyosatining Oliy o‘quv yurtlarida saboq berib kelayotgan o‘qituvchilariga, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar yaratish borasida qo‘yilayotgan talablariga javob berish, nay sinfida ta’lim olayotgan talabalarning ijrochilik repertuarini boyitish, asarlarning ijrochilik tahlili bilan chuqur tanishtirish maqsadida yaratilgan. Bu o‘quv qo‘llanma muallifning ilk ilmiy - ijodiy

[1] Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan, Senat tomobidan 2020-yil 7-avgustda ma’qullangan.

[2] O‘zR 29.08.1997 y. 463-I-son Qonuni bilan tasdiqlangan.

[3] Sh. Mirziyoyev - 16.06.2017-yilda poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 78-umumta’lim maktabini borib ko‘rish chog‘idagi TVga bergan intervyusidan.

mahsuli bo‘lib, unda O‘zbekiston kompozitorlarining aynan nay cholg‘usi uchun yaratilgan yirik shakldagi asarlari o‘rin olgan.

O‘quv qo‘llanma 3 bobdan iborat bo‘lib, ular:

I bob – Nay sozi va uning tarixi, hozirgi kunda aynan ushbu cholg‘uda olib borilayotgan ijodiy ishlar,

II bob – Nay cholg‘usida ijrochilik madaniyati, uslublari hamda shtrixlar,

III bob – O‘quv qo‘llanmada berilgan asarlarning ijrochilik tahlili, asar mualliflari, tarix va bugungi kunda nay cholg‘usi ijrochiligida katta yutuqlarga erishgan ustozlarning hayoti va ijodlari borasida so‘z yuritiladi.

Shuningdek, asarlar ijro texnikasini shakllantirish uchun etyudlar (mashqlar), mavzularni o‘zlashtirish borasida savollar, topshiriqlar va testlar (100 ta) berilgan.

Ilovada esa, asarlarning klavirlari va glossariy o‘rin olgan.

Nay cholg‘usi uchun ko‘plab o‘quv qo‘llanmalar va darsliklar yaratilayotgan bo‘lsa-da, ushbu o‘quv qo‘llanma: berilgan asarlarning yangiligi, ularning ijrochilik tahlillari hamda uslubiyoti tomonlari bilan o‘ziga xosdir. Zero, ijod hamisha davom etadi, nay sozandalarining ijro mahoratlari o‘sib, kompozitorlarimiz tomonidan yangidan - yangi asarlar yaratilaveradi.

Muallif

I BOB. Nay cholg‘usi: tarix va hozirgi kunda

Tarix. Ma’lumki, O‘rta Osiyo xalqlari juda ko‘p tarixiy voqealarni boshidan kechirigan. Har bir davrda – barcha fanlar qatori musiqa ilmi ham goh rivojlanib, goh tushkunlikka uchrab, musiqa ahli turli xil holatda yashab ijod etishdi. Ijtimoy hayot ba’zi cholg‘ularni rivojlanishiga, ba’zilarini esa muomaladan chiqib ketishiga sabab bo‘ldi.

Hozirgi kunda O‘rta Osiyo hududida qadimiy musiqa cholg‘ulari bilan bir qatorda ko‘p ovozlilikka moslashtirilgan (rekonstruksiya) musiqa cholg‘ulari mavjud. O‘rta Osiyoning yirik shaharlaridan Toshkent, Dushanbe, Olma Ota, Samarqand shaharlarida O‘rta Osiyo va Umumjahon miqyosidagi musiqiy anjumanlar o‘tkazilib milliy musiqa ijrochiligiga xos asarlar jumladan, milliy musiqa cholg‘ularining ijrolari namoyish etilmoqda.

Olma Ota shahrida 1973-yilda o‘tkazilgan Osiyo davlatlarining musiqiy tribunasi, Dushanbe shahrida 1990-yilda Borbad Marvazining tavalludini 1400 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan umumjahon musiqiy anjumani, Toshkent shahrida 1975-yilda o‘tkazilgan «Maqom, mugam va zamonaviy bastakorlar ijodi» hamda Samarqand shahrida ko‘p yillardan buyon o‘tkazilayotgan «Sharq taronalari» Xalqaro musiqiy anjumanlari shular jumlasidandir.

Milliy musiqa cholg‘u ijrochiligining yo‘qolib borishini oldini olish maqsadida, 1972-yilda Toshkent davlat konservatoriyasida san’atshunoslik fanlari doktori, professor Fayzullo Karomatov rahbarligida maqom asarlarini ijrolari, umuman milliy musiqa ijrochiligi bo‘yicha «Sharq musiqasi» kafedrasi tashkil etildi. Unda milliy musiqa cholg‘ulari ijrochiligi qayta tiklanib – ud, tanbur, qonun, nay, g‘ijjak, dutor, rubob, doira, surnay, qo‘shnay, sato va boshqa cholg‘ularning milliy uslubdagi ijrolari o‘rganila boshlandi.

Musiqa ilmining tarixi juda qadim-qadimlargacha borib taqaladi. Lekin, barcha musiqiy ma’lumotlar bizgacha yetib kelmagan.

Keyingi yillarda olimlarimizning izlanishlari natijasida - arxeologik qazishmalardan topilgan uy - ro‘zg‘or buyumlaridagi musiqa cholg‘ulari va ijrochilarning tasvirlari aks ettirilgan suratlar hamda haykalchalarga tayanib, musiqa ilmi juda qadim tarixga ega ekanligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Musiqa ilmi qachon paydo bo‘lgan degan savolga jo‘ngina qilib, odamzod yaratilgan lahzada deb javob berish mumkin. Rivoyatlarda aytilishicha - Alloh Taolo Hazrati Odamni yaratib, uning vujudiga jonni kiritish jarayonida musiqa sadolari “arzu samo”ni to‘ldirib turgan ekan. Musiqa haqida gap ketganda «Jonbaxsh» sifatining qo‘llanilishi ham shundan bo‘lsa ajab emas[4].

Miloddan oldingi davrda yashab ijod etgan ko‘pgina allomalar fanning turli sohalarida ijod etish bilan birga, musiqa ilmiga ham alohida e’tibor berganlar.

Masalan: Arestotel, Pifagor, Forobiy, Ibn Sino, Urmaviy, Marog‘iy, Jomiy, Navoiy, Kavkabiy, Husayniy, Darvesh Ali Changiy, Komil Xorazmiy va boshqalar IX asrlardan boshlab «Musiqa» ilmi va uning ijrochiligiga oid risolalar yaratila boshlandi. Forobiyning «Kitobu-l-musiqiy al kabir» (Musiqaga oid katta kitob) X-XI asrlarda Abu Ali Ibn Sinoning «Kitobu-sh-shifo», «Donishnoma» kitoblaridagi maxsus boblar.

[4] Nafas Shodmonov. “Temuriylar davrida musiqashunoslik”. T., 1995, 3-b.

Abdulqodir Marog‘iyning «Maqosid-ul-alhom» (Kuylar maqsadlari) Urmaviyning «Risolatush-sharafiya), Qutbiddin Sheroziyning «Durratuttoj» musiqiy risolalari. Abdurahmon Jomiyning «Risolayi- musiqiy» (Musiqa ilmi risolasi). Kavkabiyning «Risolayi-musiqiy» asari, ya’ni «Risola dar bayoni duvozdah maqom» «O‘n ikki maqom bayoniga bag‘ishlangan risola», Husayniyning «Qonuni-ilmi» va «Amaliyi musiqiy», Darvesh Ali Changiyning «Tuhfatu-s-surur» asarlari shular jumlasidandir.

O‘quv qo‘llanma aynan nay cholg‘usi ijrochiligiga bag‘ishlanganligi uchun, ushbu cholg‘u tarixiga mos manbaalarga to‘xtalamiz.

IX-X asrlarda yashab ijod qilgan, Sharqning buyuk allomasi Abu Nasr al-Forobiy o‘zining „Katta musiqiy kitobi’’ risolasida ta’riflangan “nay cholg‘usi -zamonaviy naydan deyarli farq qilmaydi” deb yozgan bo‘lsa, XVI asrda yashab o‘tgan musiqashunos, bastakor, sozanda, hofiz va shoir Darvish Ali Changiy o‘zining “Risolai musiqiy” traktadida shunday so‘zlarni keltiradi: “Nay hazrati sarvari koinot, yaralmishlar peshvosi, ehson bog‘ining guli, inson bog‘chasining nuri, me’roj qiblasining semurg‘i, ilohiy qurb ka’basi, Alloh sirlarining ma’dani Muhammad Rasulullo (s.a.v.) zamonidagi sozdir.

Naqldurki, uning paydo bo‘lganining sababi shul ediki, Hazrat me’rojdan qaytgandilar. Jami sirlarni mardlar sarvari, Xudo sheri Hazrat Amir al-mo‘minin Ali karramallohu vajhahuga aytib berdilar. So‘ng unga amr qildilar: “Ushbu sirlarni begonalardan pinhon saqla, oshkora qilma!”. Insoniylik taqozosiga ko‘ra, Hazrat Amir al-mo‘’minin Ali raziyallohu anhu beorom va betoqat bo‘la boshladilar. Hazrat Rasulullo sollallohu alayhi vasallamning buyruqlari hech bir kimsaga, jonga sirni oshkor etmaslik haqida bo‘lgan edi. U betoqat va beoromlik ko‘pligidan biyobonga bosh olib ketdi. Bir quduqni ko‘rib, o‘sha quduqqa sirlarni aytdi. Ilohiy farmon bo‘lib, o‘sha quduqda bir qamish ko‘karib chiqdi. Bir cho‘pon uni qirqib oldi va labiga qo‘yib puflay boshladi. Bir ovoz undan zohir bo‘ldiki, barcha vahshiy, qush va jonlar eshitishi bilanoq oromlarini yo‘qotdi. Vallohu a’lam bi-s-savob!

Bilginki, nay qiyshiq bo‘lgan, so‘ng uni taroshlab to‘g‘rilaganlar hamda unga nayi rost deb nom qo‘yganlar. Qiyshiq naydan bir qancha maqomlarni chiqarib bo‘lmaydi, to‘g‘ri naydan esa nima xohlasalar, chiqarish mumkin. Zotan, Mubarqa’ pardasi bor. U yettinchi parda bo‘lib, Rost maqomidandir. Panjgoh ham, so‘ng zilkulli bor Navo ham shunday. Segoh ulardan keyin chiqadi. To‘g‘ri nayni *zeru bam* ham deydilar.”[5]

Yoki Abdurauf Fitrat o‘zining „O‘zbek kllasik musiqasi va uning tarixi’’ kitobida “nay qamish ma’nosidagi forsiycha so‘zdir. Bizda brinj (bronza) yoki baqir (mis) dan yasaladi” deb izohlangan.

Yana shunday ma’lumotlardan birida – “nay go‘yo temirchilarning olovini havo orqali puflab beradigan narsasiga qiyos qilib Xorazmshoh Mavlano Safjiddin Al-Mo‘min tomonidan ixtiro qilingan deyiladi. Nay musiqa cholg‘usi zardoli, tut, g‘arov, nuqra, kumush yoki misdan yasaladi. Unda yetti ovoz chiqaruvchi teshik pardalar bo‘lib, bittasi alohida og‘izdan nafas berish uchun, oltitasi bir joyda birin-ketin olti barmoqqa moslanib, bular asosiy sado chiqaruvchi aylana pardalar hisoblanadi”.

1924-yillarda Buxoroda mavjud nay cholg‘usi to‘g‘risida quyidagicha ma’lumotlar berilgan: „Nay qamish ma’nosida forscha bir so‘zdir. Nay «birinj» yo «baqir» dan (kumush yoki mis) yasaladur”[15]. Yana bir asarda tanbur musiqa cholg‘usini sozlanishida Buxoroda mavjud naylardan foydalanilganligi, ya’ni mis nay

[5] Darvish Ali Changiy „Traktat o muzike”. Tashkent, 1989.

[5] N.Mironov. Muzika uzbekov, Samarkand, 1929

«sol», yog‘och nay «lya-bemol», g‘arov nay «lya» tovushlarini berib, asar ijrosida tanbur yuqoridagi naylardan bir- biri «sol», «lya-bemol» yoki «lya» tovushlariga soz qilinar ekan.

Hozirgi kun. Nay cholg‘usi katta tarixga ega bo‘lsa-da, bugungi kunda ushbu cholg‘u – ijrochilik jihatidan ikki xil yo‘nalishga:

1 – an’anaviy ijrochilik – bastakorlar ijodi, maqom, xalq kuy-qo‘shiqlari;

2 – nota orqali ijro - bastakorlar ijodi, maqom, xalq kuy-qo‘shiqlari bilan birga, O‘zbekiston va jahon kompozitorlarining turli janrlarda yozilgan asarlarini ijro etish.

Ma’lumki XX asrning 30-50-yillarida o‘zbek xalq cholg‘ularini takomillashtirish borasida, O‘zbekiston musiqa san’atining ko‘zga ko‘ringan bir nechta olimlari tomonidan katta ilmiy-amaliy tadqiqotlar amalga oshirildi. Unga ko‘ra: o‘zbek xalq cholg‘ulari faqatgina - bastakorlar ijodi, maqom, xalq kuy-qo‘shiqlari ijrochiligi bilan cheklanib qolmasdan, uning texnik imkoniyatlarini oshirish, diapozonini kengaytirish va shu orqali bastakorlar ijodi, maqom, xalq kuy-qo‘shiqlari bilan birga O‘zbekiston va jahon kompozitorlarining turli janrlarda yozilgan asarlarini ijro etish va shu orqali dunyo musiqasi durdonalari bilan tanishib, jahon miqyosida o‘tkazilayotgan turli festival hamda tanlovlarda ishtirok etish imkoniyatini yaratish asosiy masalalar sifatida qo‘yilgan.

Toshkent davlat konservatoriyada nay sinfi (“Xalq cholg‘ulari” bo‘limida) 1950-yilda ochilgan bo‘lib, A.Qodirov va M.H. Toirov mazkur sinfda ta’lim olgan ilk talabalardir. A.I.Petrosiyans va P.Yunusov nay sinfini tashkil qilish tashabbuskorlari bo‘ldi. Ular naydan tovush chiqarish yo‘llari va applikatura usullarini ham sistemalashtirishdi. 1956-yildan buyon nay sinfini oliy ma’lumotli mutaxassis Mirza Hakimovich Toirov olib borgan[6].

Olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra nay cholg‘usining oilasi paydo bo‘ldi va uning ijrochilik diapazoni kengaytirildi:

1. Nay pikkolo – do, re, mi, fa pardalaridan;
2. Nay tenor – sol’, lya, si pardalaridan;
3. Nay al’t –mi, fa, sol’ pardalaridan;
4. Nay bas – lya, si do, re pardalaridan.

Hozirda nayning ushbu turlarida O‘zbekiston va jahon kompozitorlarning turli janrlarda yaratgan asarlari chalinib, konsertlarda, shuningdek, Xalqaro hamda Respublika tanlovlarida ishtirok etib kelinmoqda. Tanlovlarda ishtirok etgan jamoalar yoki yakkanavoz sozandalar birinchi va “oliy” o‘rinlarni olib, o‘zbek musiqa ijrochigini dunyo sahnalarida targ‘ib etib kelishmoqda. O‘zbekiston musiqa ijrochiligi – o‘quvchi yoshlarning madaniy va ma’naviy saviyasini shakllantirish yo‘lida beqiyos o‘rni borligi katta ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning musiqiy savodxonligini oshirishda Milliy cholg‘u asboblarning tarkibiy tuzilishi va ijro madaniyatini o‘rganishda musiqa va san’at maktablari, san’at kollejlari, madaniyat kolleji va oliygohlarning musiqa

[6] Hozirgi kunda M.H.Toirov ishini uning shogirdi, Xalqaro va Respublika tanlovlari g‘olibi, katta o‘qituvchi B.X.Dosimbetov davom ettirib kelmoqda.

kafedralarida muntazam mashg‘ulotlar keng ko‘lamda olib borilmoqda.

Mavzu bo‘yicha savollar:

1. Musiqa ilmi va uning ijrochiligiga oid qanday ilmiy asarlar yaratilgan va ularning mualliflari haqida nimalarni bilasiz?
2. Darvish Ali Changiy o‘zining “Risolai musiqiy” traktadida, nay cholg‘usi haqida qanday fikrlarni yozdirib qoldirgan?
3. “Xalq cholg‘ulari” kafedrasida, ilk bora nay mutaxassisligi bo‘yicha talabalarga saboq bergan ustoz kim?

Mavzu bo‘yicha topshiriqlar:

1. O‘quv qo‘llanmada nomlari keltirilgan naychi ustozlar va o‘zingiz yashab turgan viloyat yoki shaharda, nay cholg‘usi bo‘yicha faoliyat olib borayotgan sozandalar haqida chuqur o‘qib o‘rganing.
2. Musiqa haqida gap ketganda, nima uchun «Jonbaxsh» sifatining qo‘llanilishini tushuntirib bering.
3. Nay turlari va ularning registrali to‘g‘risida ma’lumotlar to‘plang, ularning asar ijrosidagi o‘rni haqida tushuntirish bering.

I BOB. Nay cholg‘usida ijroni tashkil etish – yo‘lga qo‘yish va umumiy holat

Nay sozida ijro etish uchun – “tashkil etish”, “yo‘lga qo‘yish”, “tutish”, “ushlash” iboralari ishlatilib, unda ijrochi gavdasining holati, cholg‘uni ushlash (tutish) usuli va ijrochilik harakatining xususiyati (xarakteri) tushuniladi. Tajribada turli ko‘rinishdagi holatlarini ko‘rish mumkin: cholg‘u dastasini (korpusini) to‘g‘ri ushlash bilan yelka biroz burilgan, tirsak esa yengil (sal) ko‘tarilgan bo‘lishi va bunda ko‘krak qafasi siqilgan bo‘lmasligi hamda nafas olish erkin bo‘lishi lozim. Qo‘l holati shunday bo‘lishi kerakki – har bir barmoqlarni mustaqil, erkin harakatini ta’min eta olsin.

Nay cholg‘usini gorizontal holatda tutib (ushlab) turish bilan uning o‘ng tomonini pasaytirib yubormaslik kerak. Cholg‘uni barqaror holati va hamma barmoqlarning harakat erkinigini tashkil etishda, cholg‘u uchta asosiy holatga tayanishi lozim:

1. pastki daxan, nay bosh qismiga tegib tursin;
2. chap qo‘lning katta barmog‘i va kichik barmoq nayga tashqi tomondan bosib turishi asos bo‘ladi;
3. o‘ng qo‘lning ham katta va kichik barmoqlari cholg‘uga tayanib, uni ushlab (tutib) turadi.

Shunday usulda nay chalish hamma barmoqlarni erkin harakat qila olishi va cholg‘uni barqaror holatda bo‘lishini ta’minlaydi.

Nay sozida tovush hosil qilish. Nay cholg‘usidagi tovushlarning hosil bo‘lish manbai o‘pkadan chiqadigan havo (nafas) dir, o‘pka havoni yuborib turadi, chiqqan havo (nafas) ikkita bronx va traxeya orqali o‘tadi. Chiqib kelayotgan nafasni tovush hosil qiluvchi holatga keltirishda qorin bilan ko‘krak qafasini ajratib turuvchi parda (diafragma) xizmat qiladi. Chiqayotgan jarang (ovoz), tovush naychalarining tebranishi natijasida yuzaga keladi. Tovush hosil qilishda nafas asosiy vositalardan hisoblanadi. Nafas olish uch turga bo‘linadi:

1. Kiftdan nafas olish

Nafas ko‘krakning yuqori qismida olinib, kiftlar (yelkalar) ko‘tariladi, bunday nafas olish zararli bo‘lib, u o‘quvchini tez charchatadi.

2. Ko‘krak-qorin orqali nafas olish, bunday nafas olganda o‘rta qovurg‘alar, biqin harakatga keladi va ular kengayadi.

3. Aralash nafas olish, ya’ni pastki qovurg‘alar diafragma ishtirokida nafas olish. Bunda ko‘krak qafasi va kiftlar ko‘tarilmaydi.

Tovushning balandligi – tovush naychalarining uzunligi, tarangligi va tebranish miqdoriga bog‘liq. Tebranish qancha ko‘p bo‘lsa, tovush shunchalik baland bo‘ladi, tovush naychalari qancha nozik bo‘lsa, u shuncha tez tebranadi, natijada tovush baland chiqadi. Tovushni paydo qiluvchi va kuchaytiruvchi vositalardan biri – rezonator (kuchaytirilgan ohang-tovushni kuchaytirib beruvchi moslama) deb ataladi. Tovush tembrining hosil bo‘lishida yuqori rezonator – og‘iz, burun bo‘shliqlari juda muhimdir, bunda til asosiy o‘rinni egallaydi.

Akustika tovushlarni ikkiga: *aniq balandlikka ega* bo‘lgan tovush (musiqali tovush) hamda *balandligi noaniq* tovush (shovqin)larga bo‘linadi. Musiqada bularning har ikkisi ham qo‘llaniladi.

Nay sozi bilan tanishuvda ijrochilik nafasini rivojlantirish. Nay sozandasining holati – o‘ng oyoq bir oz oldinga surilgan, bosh to‘g‘ri tutilgan va gavda og‘irligini ikkala oyoqqa baravar taqsimlagan bo‘lishi lozim. Saboq berishning birinchi kunlaridan boshlaboq – o‘qituvchi o‘quvchining nay chalishdagi chiqarayotgan tovushining xususiyatiga katta e’tibor berishi kerak. O‘rnashgan, turg‘un, barqaror, intonatsion talaffuz, uyg‘unlik jihatdan aniq tovushlarni puflab chiqara olishda nafasni to‘g‘ri olish – ijrochi sog‘ligiga katta foydasi borligi borasida tushuntirish ishlari olib borib, to‘g‘ri yo‘naltirish kerak.

Tovush so‘zi ikki xil tushunchani bildiradi:

1. fizik holatdagi tovush;
2. sezgi holatdagi tovush.

So‘zlayotganda, chalayotganda, ashula aytayotgandagi tovushlarning hosil bo‘lish manbai o‘pkadan chiqayotgan havo – nafasdir, demak, o‘pka havoni yuborib turadi, bu havo ikkita bronx va traxeya orqali o‘tadi. Tovush hosil qilishda nafas asosiy vositalardan hisoblanib - u hayotiy zaruratdir.

Nafas olish uch turga bo‘linadi:

1. *Kiftdan nafas olish* (yelkalarni ko‘tarib) – noto‘g‘ri nafas.

Nafas ko‘krakning yuqori qismida olinib, kiftlar (yelkalar) ko‘tariladi – erkin va me’yorida nay chalishga imkon bermaydi, tez-tez to‘xtab qoladi.

2. *Ko‘krak-qorin orqali nafas olish*, bunday nafas olganda o‘rta qovurg‘alar, biqin harakatga keladi, ya’ni ular kengayadi. Bunday holatda nay chalganda o‘quvchi o‘zini yengil his etadi, charchamaydi, ko‘krak bilan nafas olishda ko‘krak qafasi har tomonga kengayishi, qorin devori biroz oldinga ko‘tarilishi va havo o‘pkaning yuqori qismini to‘ldirishi kerak. Tez sur’atdagi kuyni ijro etishda naychi qisqa (to‘lqinsiz stakkato tarzida) nafas olishi va tezlikda burun orqali nafas chiqarib, labni naydan (labiumdan) uzmasligi kerak. Ko‘krak orqali qisqa nafas chiqarishda bir maromda shoshilmaslik lozim, toki bir nafas yo‘lida ijrochi bitta musiqa (kuy) jumlasini chalib ulgurishi kerak. Uzluksiz biron-bir kuy, mashq, etyudni chalishga to‘g‘ri kelib qolsa (ko‘proq o‘n oltitalik notalarda uchraydi), iloji boricha zaxira havo olish talab etiladi. Organizm hamma vaqt – o‘z atrofidagi muhitdan kislorodning kelib turishiga va hujayradagi moddalar bilan to‘qnashuvi natijasida paydo bo‘lgan oksidlanish tufayli vujudga keladigan, ortiqcha karbonat angidrid gazni hamda qisman suv bug‘ini tashqariga chiqarib turishga muhtojdir.

Nafas olish tez, chiqarish esa tekis va davomli bo‘lishi lozim. Chuqur nafas olganda barcha o‘pka pufakchalari kengayib, o‘pka hajmi kattalashadi va ko‘krak qafasini – ham uzunasiga ham eniga kengaytiradi. Ko‘krak qafasining uzunasiga kengayishi natijasida ko‘krak-qorin to‘sig‘i, ya’ni diafragma gumbazi birmuncha qisqaradi, yassilanadi, pasayadi, bu paytda qovurg‘alardan tortib hatto umurtqa suyakgacha turlicha me’yorda kengayadi.

3. *Aralash – diafragmal ko‘krak-qorin (qursoq) to‘sig‘i orqali nafas olish*. U – cho‘zib, ohista, mayin chalinadigan bir nechta taktlardan iborat jumlalarni bir nafasda ulab ijro etiladigan kuylarda ko‘proq qo‘laniladi. Bu turda havo o‘pkaning yuqori va pastki qismlarini to‘liq to‘ldiradi. Nay, qo‘shnay, surnay, balabon kabi cholg‘ularda musiqa asarlarini badiiy ijro etilishi ko‘p jihatdan to‘g‘ri nafas olishga bog‘liqdir. Puflashni o‘rganib, mashq qilib borish jarayonida ma’lum bir musiqiy jumla – iboraning cho‘zilishini bir nafasda chalinishiga erishish mumkin

Nota yo‘lida nafas olish belgisi, ya’ni tsezura – lotincha “V” ko‘rinishida

ifodalanadi, u takt chizig‘i ustiga qo‘yiladi.

Ma’lum bir musiqiy jumlani, mashqni oxirigacha chalmasdan, to‘xtab nafas olish va yana to‘xtagan joydan chalishni davom ettirish holati noto‘g‘ri deb hisoblanadi. Nafasning eng noto‘g‘ri uslubi diafragmal yoki ko‘krak-qorin uslubidir - yelkani ko‘tarmasdan, nayni yelkaga tekkizmasdan va bo‘yin muskullarini zo‘riqtirmasdan nafas olinishi kerak.

Ko‘krak qafasini kengaytirish uchun boshlang‘ich mashqlarni cholg‘usiz ham bajarish mumkin (go‘yo sport bilan shug‘ullangandek faraz qilish kerak). Muttasil mashqlar qilish natijasida qovirg‘a oralig‘i muskullari va diafragma rivojlanib, erkin nafas chiqarishga erishiladi.

Nafas olish. Nafas – organizmga kislorod (havo) kirib turishi, organik moddalarning biologik oksidlashishida, uning sarflanishi va moddalar almashinuvi jarayonida hosil bo‘ladigan karbonat angidrid gazini organizmdan chiqarib tashlashni ta’minlovchi jarayon yig‘indisidir. Hujayralarda bo‘ladigan biologik oksidlanish natijasida quvvat ajralib chiqib, organizm hayot faoliyatini ta’minlashishiga sarf bo‘ladi.

Nafas organlari – burun bo‘shlig‘i, halqum, hiqildoq, tranxeya, bronxlar va o‘pka – havoning kirib-chiqib turishi va gazlar almashinuvini ta’minlaydi. Nafas yo‘llarining shilliq pardasi *hilpillovchi epiteliy* bilan qoplangan, hujayralarining tashqi yuzasida ingichka o‘simtalar – qisqara oladigan tuklar bor.

Nafas harakatlari, ya’ni nafas muskullarining bir maromda qisqarib borishi tufayli ko‘krak qafasi hajmining galma-gal kengayib va torayib turishi *nafas olish va chiqarishga* – o‘pkaga havo kirib - chiqib turishiga imkon beradi, bu *o‘pka ventilatsiyasi* (havo almashtirib beruvchi vosita) deb ataladi.

Nafas chiqarishda oz bo‘lsa ham yelka ko‘tarilsa o‘pkada nafas chiqarishning noto‘g‘ri holati ro‘y beradi, bunday usulda *diafragma* umuman ishlamaydi, nafas olish yuzaki holatda, nafas chiqarish esa qisqa va sayoz bo‘ladi.

Shunday qilib, nafas olish qoidalari nuqtayi nazaridan aniq va oddiy: ular diafragmaning faolligi bilan pastki (quyi) va o‘rta qovurg‘alar hamda nafas olishda yelka umuman harakatsizlanishi bilan yakunlanadi.

Boshlovchi ijrochilarni diqqat bilan kuzatib borish lozim va u barcha to‘g‘ri ko‘rsatmalarga amal qilishi muhim. Ayrim pedagoglar nafas olishni –“ko‘krak-qorin va o‘pka”dan boshqa “ko‘krak va qorin-qursoq” xillarig ajratadilar. Lekin shuni hisobga olish kerakki, nafas olishning sof xillari aniq tajribaga ega emas va u doim aralash xususiyatga ega bo‘lgan. Nafas olishni u yoki bu xiliga kirgazish har bir insonning shaxsiy organizmi va mushaklariga asoslanadi. Nafas olishning ma’lum bosqichlarida hamma nafas olish mushaklari ishtirok etishi bilan birga, yurak to‘qimalarining mushaklari ham ishtirok etadi. Har bir holatda ijrochi o‘ziga eng munosib va qulay usullaridan foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Nafasning rivojlanishi sekinlik bilan o‘zlashtirilishi kerak. Shu sababli, boshlovchi yosh ijrochilardan zo‘r berib talab qilishi yaxshi oqibatlarga olib kelmaydi. Bir nafasda katta musiqiy jumla – ibora bajarishdagi nafas olish butun nafas mushaklarini faollashtiradi, uning yordamida o‘pkada juda ko‘p havo yig‘iladi, yig‘ilgan havo sekin-astalik bilan sarflanishi esa *ijro etilayotgan musiqa dinamikasi va xarakteriga bog‘liq*. Mashqlarning birinchi davrlarida go‘yo boshlovchi ijrochilarda havo yetishmayotgandek tasavvur hosil bo‘ladi. Bu esa nafas mushaklari faol nafas chiqarishga moslashmagan, mushaklar hali zaif, tovush hosil qilishda havo tejamkorlik bilan sarflanmaydi deb tushuniladi. Boshlang‘ich mashqlarda

davomiy tovush bo‘lmasligi, kichik jumlalardan tashkil topgan bo‘lishi muhim. Shu orqali yosh naychi qiynalmasdan dinamik ijroni o‘zlashtiradi, bir tekis tovush chiqarishga erishadi va intonatsion kamchiliklardan xoli bo‘ladi.

Keyingi ijro nafasining rivoji davomli tovushni asta-sekin kuchayishi va pasayishidagi nafas chiqarishdan iborat. Bunday mashqlar yordamida qovurg‘a mushaklari va diafragma rivojlanadi hamda faol o‘rinsiz nafas chiqarishga moslashadi.

Inson organizmining o‘sishida jismoniy mashqlar va nafas apparatining ahamiyati haqida so‘z yuritganda – “ijro nafasi” faqat ijro jarayoni natijasida rivojlanishini nazarda tutish kerak. Har qanday mashqlarni cholg‘usiz bajarilishi nafasni tashkil etishda o‘quvchiga hech qanday naf keltirmaydi. Nafas chiqarishning ijro sifati - eshitish qobiliyati orqali nazorat etiladi, tovushni uqib olish shunday nafas chiqarishning natijasidir.

Pedagogik amaliyotda gammalarni sekin sur’atda turli nyuanslar (tovush ohangdoshligi) bilan ijro etib foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ayrim ijrochilar nafas chiqarayotgan paytda, havoning bir qismi burundan chiqib ketishi natijasida tovush bo‘linib ketadi va ma’lum miqdorda *tovush tusi - tembr sifatini yo‘qotadi*. Bunday kamchilik har doim bo‘lmasada uchrab turadi.

Nafas – musiqiy ta’sir kuchining eng asosiy vositalaridan biridir. Ijrochida nafas qanchalik rivojlangan bo‘lsa, tovush ohangdoshligi (nyuans) ham shunchalik xilma-xil bo‘ladi. Lekin nafas olishda ijroning dinamik tomonlari tovush sifatigagina bog‘liq emas, nafas yordami bilan musiqiy jumlalar bir-biridan ajratiladi. Nafasning tez-tez almashib turishi ba’zan hayajonlanishga olib keladi, natijada kuchli qisqa musiqiy jumlalar ifodalanishga sabab bo‘lishi mumkin.

Havo zaxirasi ijrochida tugagan paytda, nafas olish tasodifan bo‘lishi mumkin emas. Ijrochining nafas olishini tinglovchi sezmasligi lozim, yaxshi notiq ma’ruzasida qachon va qanday nafas olayotgani tabiiy, hech kimning o‘y - xayoliga kelmaydi. Xuddi shunday sozanda ham bitta musiqiy jumlani boshidan boshqasiga o‘tayotganda mantiqiy va tabiiy ijro asosini yaratmog‘i lozim. Bir nafasda ko‘proq musiqa chala olish -– sozandaning nafas tajribasi mukammal ekanligidan dalolat beradi. Ayrim paytda juda uzun musiqiy jumlani uchratish mumkin, uni bir nafasda ijro etishning hech iloji yo‘q. Shunda, jumlaning biron taktida nafas olish uchun joy izlanadi. Bunda ijro etilayotgan musiqiy jumla ma’nosi buzilmasligi lozim. Bunday joyni doim topish mumkin, *liga* nafas uchun to‘siq bo‘lib xizmat qilmasligi kerak, u faqat bir tekis, silliq va bog‘lamli ijroni ko‘rsatadi. Liga orqali nafas olgandan keyin navbatdagi tovushga *urg‘u bermaslik lozim*.

Nafas almashtirishni to‘g‘ri taqsimlash – ifodali ijro uchun katta ahamiyatga ega. Shuning uchun pedagog ish boshlanishidan oldin, sozandaning asarini ijro etish imkoniyatlarini hisobga olib, qayerda nafas olish (sezura) kerakligini to‘liq ko‘rsatib berishi muhimdir. Asarning nafas tahlili jarayonida o‘quvchi ham qatnashishi maqsadga muvofiq. Bu orqali u asta-sekin mustaqil ravishda ma’lumotlarni ajrata oladigan va nafas olishda to‘g‘ri xulosa chiqarishni o‘rgana boshlaydi.

Nafas olish texnikasini har tomonlama rivojlantirish va uni musiqiy ifoda vositasi sifatida to‘liq o‘rganish kerak. Nay chalishni o‘rgatishda *artikulatsiya* texnikasini – ijroning eng asosiy vositasi deb hisoblash lozim. Uning sifatiga *intonatsion aniqlik* va *tovush ko‘rkamligi* bog‘liq bo‘ladi. Ushbu texnikaning rivojlanishida - ijrochi lab bilan cholg‘u asbobida katta kuch talab qiladigan ishni bajaradi.

Inson yuzi mushaklar tuzumiga ega bo‘lib, cheksiz imkoniyatlar bilan ta’minlaydi. Har xil balandlik va kuchga ega tovushlarni chiqarishda lab mushaklariga zo‘r berish lozim bo‘ladi. Past va o‘rta tovushlar uchun ozroq zo‘r berishlik yetarli bo‘lsa, yuqori (baland) tovushlar uchun esa kuchli zo‘r berish talab etiladi va ushbu tajribaga erishishga davomli hamda muntazam mashq natijasida erishiladi. Lekin ijrochiga lab mushaklarining kuchi va chidamli bo‘lishigina yetarli bo‘lmaydi. Shuningdek, harakatchanlik, qobiliyat kabi fazilatlar ham asqotadi. Bevaqt yuqori tovushlarning muvaffaqiyatli ijrosi ketidan quvish - o‘rinsiz natijalarga olib keladi. Lab mushaklari kerakli kuch va mustahkamlikka erishmasa, haddan tashqari zo‘riqishga olib keladi va tovush sifati qoniqarli bo‘lmaydi. Bunday holatda shipildoq aks sadolar va xira tovushlar ijroning doimiy xususiyatiga aylanib qoladi va bu kamchilik bilan kurashishda - keyinchalik sabot-qat’iylik ham kerakli natijani bermaydi. Shuning uchun, *lab chidamliligini* rivojlantish borasida, shunday ma’lumot tanlash kerakki: diapozonni yuqoriga va pastga kengaytirish asta-sekin yetarli bo‘lsin. Unga erishish borasida kuy, ohang, maqom ruhida gammasifat mashqlardan foydalanish mumkin. Bu borada - yondosh holatdagi labning izchil harakatchan rivoji zarur bo‘ladi. Har bir tovush uchun uning balandligi va kuchidan qat’i nazar ma’lum darajada labga zo‘r berish talab qilinadi. Lab taraqqiyotida harakatchanlik mavjud bo‘lib, uchtovushlik va boshqa akkordlarda turli hamohanglardan (kombinatsiyalardan) tuzilgan mashqlar xizmat qiladi. Bu maqsad uchun gammalar bo‘lib-bo‘lib bajariladigan - tertsiyalar, sekstalar, dominantseptakord kabi misollardan iborat bo‘ladi. Lab texnikasining taraqqiyotida yaxshi rivojlangan ichki eshitish qobiliyati ham katta ahamiyatga ega. Tembri bo‘yicha qoniqarli va intonatsiya bo‘yicha nuqsonsiz sof tovush bo‘lishi uchun aniq, mos darajada labga diqqatni kuchaytirib nafas chiqarish lozim. Agar ijrochi o‘zining ichki eshitish qobiliyati bilan sof tovush balandligini o‘ziga aniq tasavvur eta olsa – bu uning muvaffaqiyatga erishishni osonlashtiradi. Faqat shundagina xatosiz darajada yuz mushaklarini zo‘r bermasligi va intonatsion aniqlik va tovush sifati ijrosiga erishadi. Ijro mahoratini shu tariqa muvaffaqqiyatli mustahkamlab, diqqat bilan, doimiy eshitish qobiliyatini to‘xtovsiz ravishda ishga solgan holda mukammal tovush chiqarishga erishish mumkin.

Har bir ijrochi uchun nay sozini tutish holatini (postanovka) to‘g‘ri tashkil etishda bitta umumiy qoida bilan hal etib bo‘lmaydi. Naychining ijro apparatini munosiblik bilan to‘g‘ri tashkil etish zarurligini topmoq lozim. Agar bu masala qoniqarli hal etilsa, yana bitta eng muhim va jiddiy bosqich qoladi. U ham bo‘lsa, lab texnikasi va u bilan bog‘liq yuz mushaklarining uyg‘unligiga erishmoq kerakdir. Bu maqsadga erishishda sozandaning mustaqil ravishda olib borgan mehnatining sifati va miqdoriga ham bog‘liq. Bu yerda shuni hisobga olish lozimki, ijrochi bunday faoliyati jarayonida bir qancha harakat va to‘siqlarni yengib o‘tadi.

Shunday qilib, sozanda tomonidan tovush chiqarish ko‘nikmasini birinchi navbatda talab qilish – tovush va uning sifatini tashkil etishning asosiy talablaridan biridir. Tovush sifati esa intonatsiya sofligi bilan chambarchas bog‘liq.

Pedagog tovush sifatiga va sozandaning intonatsiya muayyanligiga diqqatni qancha kuchaytirsa, sozanda o‘z ishini bajarishga shunchalik talabchan bo‘ladi. Tovush mustahkamligini keng tarqalgan usullaridan biri sekin sur’atda musiqani eshitishdir, shunday mashqlarning qulayligi natijasida, ijrochining ovoz sifatini eshitish uchun bo‘sh vaqti bo‘ladi va u har bir tovushga o‘z diqqatini jamlaydi.

Nay sozida ijro nafasini rivojlantirish. Oddiy nafas olishda nafas olish va

nafas chiqarish vaqti taxminan bir xil. Puflama cholg‘ularda ijro qilayotganda tez, keskin nafas olish, nafas chiqarishda esa gohida bir tekis yoki sekinlatish talab etiladi. Hammasi ijro etish ohanglariga (tusga) bog‘liq. Til va nafas texnikasini rivojlantirish uchun – ijrochidan muntazam ravishda mashqlar bajarishga ehtiyoj seziladi. Nafas va tilda erkinlikka erishish – qovurg‘alar orasidagi mushaklar va diafragmalardagi zo‘riqishlarni to‘xtatadi, ijrochining nafas chiqarishi faollashadi. O‘zgarmaydigan tovush kuchi esa, nafas mushaklarini asta-sekin kuchsizlanishiga olib keladi, tovushning kuchsizlanishi esa asta-sekin nafas chiqarishni sekinlatadi.

Tembrga nisbatan sifatli, sof tovush chiqarish uchun, aniq qoidaga amal qilmoq lozim. Sozanda labiga ortiqcha zo‘r berishi kerak emas. Nafas chiqargandagi havo oqimi lablar orasidagi yoriqni kengaytirmasligi, labni cho‘zish mo‘tadil holatda bo‘lishi shart. Nafas chiqargandagi havo oqimi nay bosh qismidagi teshik o‘rtasiga (labium) yo‘naltirilishi lozim. Lablar orasidagi yoriqning noaniqligi, nayning bosh qismidagi teshikka mutanosib bo‘lmasa – mukammal tovush chiqarishga salbiy ta’sir qilish mumkin.

Cholg‘uning umumiy sozi (lya birinchi oktava – 140 gerts) asosiy belgilangan miqdordan kam bo‘lmasligi kerak. Agar umumiy sozni tushirishda (pasaytirishda) nayning bosh qismi o‘zidan biroz nari burilsa – soz pasayadi. Unda tovushning tembr sifati va uning sofligi ham biroz pasayishi mumkin va aksincha. Cholg‘uni normal sozlanishida ijrochining pastki labi puflab chalinadigan teshikning yarmiga yaqin qismini berkitishi lozim.

Mavzu bo‘yicha savollar:

1. Nafas va uning vazifalari haqida nimalarni bilasiz?
2. Nay ijrochiligida, yuzdagi mushaklar qanday vazifalarni bajaradi?
3. Artikulatsiya nima?

Mavzu bo‘yicha topshiriqlar:

1. Nafasni rivojlantirish uchun, har bir notalarga fermata belgisini qo‘yib gammalar ijro eting va ularning toza ijrosiga e’tibor bering.
2. Diafragma va uning ijrodagi ahamiyati haqida ma’lumot to‘plang. Ma’lumotlardan nimalarni uqqaningizni tushuntirib bering.
3. Ijro paytida nafas olish va chiqarish jarayonlarini kuzating, organizmda nimalar sodir bo‘layotganligiga ahamiyat bering.

Shtrixlar va ularning ijro yo‘llari

Musiqada shtrixlarning o‘z vaqtida qo‘llanishi va ularning mukammal ijrosi muhim sanaladi. Ular orqali asarning to‘laqonli xarakteri oshib beriladi.

Nay sozida shtrixlar *til va nafas xizmati* bilan birgalikda olib boriladi. O‘zlashtirilgan barcha ijobiy fazilatlarni ifoda etish – til texnikasining taraqqiyotiga chambarchas bog‘liq. Til o‘zining serharakatligi tufayli tovush chiqarish usullarini nozik tomonlarini ochib bera oladi. Til qopqoq (klapan) vazifasini bajarib, nayga havo yo‘naltirishda teshiklarni ochib - yopib turadi. Til harakati bilan tovushlar sozlanadi, ijro cho‘zimi ortadi va shtrixlar ijrosi tartibga solinadi. Bunday harakatlar **T. D. K.** undosh tovushlarining talaffuzi bilan mos keladi.

Nay ijrosida quyidagi shrtixlar ko‘p uchraydi:

Staccato – ajratilgan, alohida, uzib, qisqa ijro etish. Ushbu ijroni amalga

oshirish uchun uzun tovushlarni til harakatlari bilan to‘xtatib nayga havo yo‘naltiriladi, natijada tovushlar oralig‘ida pauzalar vujudga keladi, pauza qancha ko‘proq bo‘lsa, tovushlar shuncha qisqa bo‘ladi.

Legato usulini ijro etish yo‘llari shundan iboratki, bir tovushdan ikkinchisiga o‘tishda to‘xtovsiz nafas yo‘llash orqali til harakatisiz holatda sodir bo‘ladi.

Non legato – notalar bir-biriga ulanmagan holda, jumlani silliq ijro etish.

Qo‘sh stakkato usulini qo‘llash hozirgi paytda naychi sozandalar tomonidan yaxshi o‘zlashtirilgan bo‘lib, ushbu ijro uslubidan keng foydalanilmoqda. Qo‘sh stakkato oddiy stakkatodan tez va ravon jaranglashi bilan farqlanadi.

Triol tovushlarni qo‘sh stakkato uslubida ijro etish quyidagicha:



T K T T K T T K T T K T

Kvintol tovushlarni ijro etish ham mutlaqo o‘xshash bo‘lib, unda uchta nota o‘rniga beshta nota ijro etiladi:



T K T K T K T K T K

Qo‘sh stakkato usuli bilan ijro etishning afzalligi shundaki, til ikkala turdagi (T,K) harakatlarda bir tekis ishga solinadi.

Eski uslubdagi triollarni ijro etish quyidagicha bo‘lgan:



T T K T T K T T K T T K

Til mushaklariga asosiy og‘irlik birinchi harakatga (**T**) to‘g‘ri kelsa, ikkilamchi og‘irlik mushaklarga va tilning ikkinchi harakatiga (**K**) tushadi.

Shunday qilib, ikkinchi uslubdagi ijro turini ijrosi **(K)**, birinchi turni (**T**) ijro etishga nisbatan birmuncha kuchsiz, zarur aniqlikka ega bo‘lmaydi. Ushbu uslubdagi ijro – tilning tez toliqishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu tufayli, ijrochilikning ushbu texnik uslubini o‘rganishni kechiktirmaslik kerak. O‘quvchi cholg‘uda asosiy ijro etish usullarini qat’iy o‘zlashtirib olgandan keyin, uning ravnaqini yo‘lga solib, kuzatib borish lozim.

Qo‘sh stakkato ijrosini o‘zlashtirish, bir qadar kechroq boshlanishi mumkin, chunki bunda o‘quvchining musiqiy yetukligi asosiy talablardan biridir.

Qo‘sh stakkato, yuqorida aytib o‘tganimizdek – so‘nggi davrdagi nay ijrochiligida ko‘p uchrayotgan bo‘lsada, ta’limning ilk davrlarida uning o‘zlashtirilishi uchun ko‘p vaqt sarflash to‘g‘ri emas.

Frullato (ital. frullato; ingl. flutter-tonguing) – nayda ijrochilik uslubi – tremoloning bir turidir. Ushbu shtrix musiqa ijrosi jarayonida “r” tovushini uzoq vaqt ushlab turish bilan ifodalanadi. Furlato juda kam uchrasada, aynan nay (yoki fleyta) cholg‘ulari uchun yozilgan asarlarda, kompozitorlar tomonidan ko‘p qo‘llanadi. Ushbu shtrix ijrosi, asardagi aynan qaysidir jumlani ifodali va badiiy tomondan boy ijrosini

ta’minlaydi.

Frullato ijosini tashkil etishning yana bir turi, tomoqda joylashgan tilcha bilan bog‘liq. Unda, inson tomoqni chayqash jarayonida, o‘sha tilchaning vibratsiyasi paydo bo‘lishini eslash lozim. Ushbu uslub, shtrix (frullato) texnikasini ilk bor o‘zlashtirayotgan sozandalar uchun juda foydalidir.

Aynan frullato ijrochilik uslubining texnik ijrosini o‘zlashtirishdan avval, sozandadan asosiy ijrochilikda to‘g‘ri va maksimal darajada sifatli ovoz chiqarishni yetarli darajada o‘zlashtirib olish talab etiladi.

Nay sozini chalishda labga qo‘yiladigan qism

Puflama cholg‘ularini chalish jarayonidagi og‘iz muskullarining to‘plami (majmui), labning holati va cholg‘uni labga qo‘yib chalinadigan qismlari umumiy – **ambushyur** (mundshtuk, qalpoqcha) deb nomlanadi. Har bir registr va baland-past tovushlarni hosil qilish uchun muskullarning keskinligi turlicha bo‘ladi.O‘rta registrdagi tovushlarni hosil qilishda keskinlik juda kam, quyi registrda kuchliroq, yuqorigi registrda esa ambushyurning keskinligi ortadi. Nay chalishni o‘rganish paytida labni ishlatishga katta ahamiyat berish kerak, chunki puflab chiqarilayotgan tovushning sifati asosan shunga bog‘liq.

Nay sozining asosiy tovushqatoridagi oraliq tovushlar

Asosiy tovushqatordagi yuqori (baland) tovushlar qattiq, kuchli puflab chalish yo‘li bilan hosil qilinadi. Shuningdek, eng yuqori tovushlarni - juda kuchli puflash yo‘li bilangina hosil qilinadi va murakkab (kombinatsiyali) applikaturada olinadi. **Baland – forte (*f*)** va **past – piano (*p*)** puflash hamda barmoqlar bilan teshiklarni ochib-yopish holatini o‘zgartirish natijasida nay chaluvchilar xromatik tovushqator (nimparda), ya’ni yarim ton hosil qilib, nayning diapozonini (oraliqni) ikki yarim oktavaga, ya’ni birinchi oktava “lya” tovushidan to to‘rtinchi oktava “re” (mi) tovushigacha ijro eta oladilar. Ushbu notalar oralig‘i to‘rtta - quyi (past), o‘rta, baland va eng yuqori registrlarni o‘z ichiga oladi. Registr – ma’lum bir maqsadda bir qism tovushqatorining qo‘shni tovushlar bilan qo‘shilib kelishidir. Nay tovush hajmi jihatidan yuqori registrga ega, uning asosiy tovushqatori - kuychan (melodik) va nafisdir (“lya” minor).

Nay sozini saqlash qoidalari. O‘qituvchi yosh sozandalarga nay cholg‘usini saqlash qoidalarini eslatib o‘tishi zarur. Nay sozini toza va quruq saqlagan holatda tutib, saboqdan bo‘sh vaqtda matodan tikilgan g‘ilof (chexol) yoki qattiq buyumdan (yog‘ochdan) yasalgan qutida (futlyarda) doim ma’lum bir belgilangan joyda tik yoki yotiq holatda saqlash kerak.

Vaqti-vaqti bilan nayning ichki qismini - o‘simlik yog‘i (pista) bilan artilib tozalab turiladi. Unda sozlagich (tiqin) siljib ketmasligi lozim, aks holda soz tushib ketadi. Nay ustki qismi esa mayin mato bilan artiladi.

Sozlagichning qurib qolmasligi uchun tiqin yog‘lab turiladi. Nay cholg‘usini qattiq zarbdan, issiq-sovuqning salbiy ta’siridan saqlash lozim. Sovuq kunlarda tashqaridan xonaga soz bilan kirilganda, xona haroratida nay va qo‘l barmoqlarini isitib olish va besh daqiqadan so‘nggina sozni chalish mumkin bo‘ladi.

Mavzu bo‘yicha savollar:

1. Nay sozining pastki, ishchi va yuqori registrlari qanday oktava va notalarni o‘z ichiga oladi?
2. Frullato ijrosini amalga oshirish uchun nimalarga e’tibor berish kerak?
3. Non legato va legato ijrolarining farqi nimada?

Mavzu bo‘yicha topshiriqlar:

1. Pastki va yuqori registrlardagi notalarda shtrixlar ijrosini o‘zlashtiring hamda ularning sofligiga e’tibor bering.
2. Nay ijrosida “til xizmati” borasida qanday ma’lumotlarga ega ekanligingizni tushuntirib bering.
3. Aynan nay sozi uchun O‘zbekiston kompozitorlari tomonidan yaratilgan asarlar haqida ma’lumotlar to‘plang. Ularning ijro xarakterlari to‘g‘risida so‘zlab bering.

O.Abdullayeva. Nay va orkestr uchun konsert

Kompozitor Oydin Abdullayevaning ushbu konserti XXI asrda nay uchun yaratilgan eng yorqin va o‘ziga xos yirik asarlardan biridir.

Asar bir qismli bo‘lib, sonata shaklida yaratilgan. Cholg‘uning ijro imkoniyatlari rang-barang, ohang ko‘lami esa keng qamrovli ravishda ishlatilgan bo‘lib, nay cholg‘usining musiqiy-estetik salohiyatidan to‘laqonli foydalanilgan.

Konsert[7] katta ashula janrini eslatuvchi rechitativ bilan boshlanadi. Bunday holat O‘zbekiston kompozitorlarining asarlarida uchrab turadi:



Kirish qismida yangraydigan mavzu musiqiy shaklning bosh partiyasiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Undagi milliy qochirimlar va xonishlar butun asarning tematizmiga xos badiiy-estetik tasvirni namoyish etadi.

Bosh partiyaning mavzusi harakatchan, intiluvchan xarakterga ega. Unga jo‘r bo‘luvchi ritmik-garmonik usul orkestrning bass ovozida o‘z ifodasini topgan. Mavzu si-frigiy ladida boshlanib, o‘zining rivojlanishi davomida xalq kuylariga xos bo‘lgan lad o‘zgaruvchanligi bo‘ylab o‘tadi:

[7] Konsert — (nem. Konzert, ital. concerto, lot.concerto — musobaqalashaman). Bitta yakkanavoz (kamdan-kam hollarda bir nechta yakkanavoz) va orkestr yoki ansambl uchun yozilgan yirik shakldagi asar. Unda yakkanavoz o ‘zining ijrochilik mahorati bilan orkestr ijrochilari bilan ijodiy musobaqalashadi.



Bosh partiyaning mavzusi mayda texnik ifoda vositalaridan tuzilgan bo‘lib, virtuoz xarakterda o‘z ifodasini topgan. Bir ko‘rishda texnik murakkab ko‘ringan bosh partiya o‘zining badiiy-estetik obrazi bilan diqqatni tortadi. Demakki, bosh partiyaning musiqiy matosi cholg‘uchidan nafaqat texnik tayyorgarlik, balki obrazning hissiy tomonini aks ettirishga qaratilgan badiiy mahoratni ham talab etadi.

Konsertning *yondash mavzusi* o‘zining xarakteriga ko‘ra bosh mavzuga tafovut hosil qiladiki, bu holat sonata shakliga xos xususiyat hisoblanadi. **Andante** sur’atida yangraydigan yondosh partiya og‘ir, mahzun xarakterni ifoda etadi. Ushbu bo‘limda musiqiy mato o‘zbek milliy musiqasiga xos bo‘lgan qochirimlar vositasida yangrashi maqsadga muvofiqdir. Yondosh mavzuni ijro etayotgan cholg‘uchi o‘zining cholg‘usini naqadar mukammal egallaganini namoyish etish imkoniyatiga ega. Negaki, ushbu bo‘lim asarning lirik markazini tashkil etib, asar dramaturgiyasida muhim o‘rin egallaydi. Asarning ma’naviy barkamol bo‘lib yangrashida yondosh mavzuning xarakteri va kuychan qiyofasi mukammal aks ettirilishi shart:



Konsertning o‘rta qismi shaklda *rivojlov* vazifasini bajaradi. U jadal sur’atda harakatlanib, bosh mavzuning tematik va garmonik jihatdan rivojlanishi asosida qurilgan. Bu bo‘limni ijro etishda cholg‘uchidan musiqiy ladlarning o‘zaro munosabatini tinglay bilish tajribasi talab etiladi. Musiqiy matoning rivojlanishi jarayonida garmoniyaning har safar yangilanishi va shu munosabat bilan, alteratsiya belgilarining ham turli xil tuslanishiga alohida e’tibor qaratish zarur. Rivojlov qismini shartli ravishda uch bosqichga bo‘lish mumkin. Bu do-diez frigiy ladiga tayangan bo‘lim, re-diez frigiy ladi va undan keyin sol’-diez frigiy ladiga asoslangan bo‘limlardir. Ular birin-ketin almashib, melodik-garmonik izchillik ortgani sayin obrazning hissiy qizg‘inligi ham o‘z maromiga yetadi. Bu esa, obrazning rivojlanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi.

Rivojlov jarayonida yakkanavoz cholg‘uchi hamda orkestr o‘rtasida o‘ziga xos musobaqalashuv jarayoni kuzatiladi. Binobarin, nay partiyasida o‘tayotgan barcha melodik-garmonik jarayonlar orkestr cholg‘ularining partiyasida ham o‘z ifodasini topadi. Bunday izchillik yakkanavoz va orkestrning ijro mahoratini sinaydi.

Asarning dramaturgik avji rivojlov bo‘limining so‘nggiga to‘g‘ri keladi. Bunda o‘zining murakkab ijrochilik yo‘lini mukammal bosib o‘tgan yakkanavoz ijro navbatini orkestrga beradi. O‘z navbatida, orkestr rivojlov qismiga munosib ravishda nuqta qo‘yadi.

Cholg‘u konsert janri uchun xos bo‘lgan eng asosiy element – kadensiya. Ushbu qismda yakkanavoz o‘zining bor imkoniyatini namoyish etadi. Tahlil etilayotgan konsertda kadensiya avvaliga yondosh mavzuning materiali asosida rivojlanadi. Bu holatni shakl nuqtayi nazaridan yondosh mavzuning reprizasi deya baholash mumkin. Nayning yakka qolib, yondosh mavzuni erkin holda ijro etishi asar dramaturgiyasiga o‘ziga xos lirik chekinish olib kiradi. Kadensiyadagi lirik kayfiyat asta-sekin jo‘shqinlik sari amalga oshiriladigan harakat bilan almashadi. Bunda nayning partiyasi melodik-ritmik usulga asoslangan figuratsiya orqali bosh mavzuga tomon harakatlanadi. Bunda nay ijrochisi o‘zining mahoratini ishlatib, turli shtrixlarni qo‘llashi mumkin:



Repriza bosh mavzu yangraydi. Bunda reprizani umumiy dramaturgiyaning xotimasi sifatida baholash mumkin. Negaki, repriza asarga xulosa yasash asnosida, tonallikning turg‘unlik (si frigiy ladi) holatiga kelishini ta’minlaydi. Turli xil obrazlar va musiqiy jarayonlardan o‘tib, yakuniy marraga yetib kelayotgan yakkanavoz cholg‘uchi o‘zining virtuozligini yana bir bor namoyish etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Asarning stilistikasini ko‘rib chiqar ekanmiz, uning musiqiy tilida turli elementlarning sintezini kuzatishimiz mumkin. Bular, xalq musiqasi, shuningdek, klassitsizm, romantizm va zamonaviy musiqaga xos elementlardir. Bu holat esa, asar tinglovchilari doirasining kengayishini ta’minlaydi. Zero, asarni tinglagan har bir inson o‘zi uchun yaqin bo‘lgan va uning shaxsiy ehtiyojlariga javob beradigan hissiy tuyg‘uni topishi mumkin.

Asarning yondosh mavzusi bosh mavzuga nisbatan og‘irroq tempda frigiy dedida (si frigiy) yozilgan. Bu holat aynan yondash partiya mavzusiga xos bo‘lib asarning melodik ohangi sharqona uslubdagi kuychan mavzu bilan qism davomida bir necha bor o‘tib boradi. Bu qismda ijrochi aynan al’t nay cholg‘usida mavzuni xarakterini ochib berishi asarning mohiyatini yanada boyitadi.



Bu qismning yana o‘ziga xosligi polifonik imitatsiyalardan foydalanilganligi alohida ahamiyatga ega.



Asarning reprizaga zarbli cholg‘ular orqali o‘tishi tinglovchiga yana ham ko‘tarinkilik baxsh etadi. Reprizada bosh mavzu takrorlanadi. Asar so‘ngidagi xotima garmonik jihatdan mukammal boyitilib asar yakuniga haqiqiy tugallov xarakterini ochib bergan.



Milliy ohanglarni o‘z ichiga olgan mazkur asar ijrochiga har tomonlama cholg‘uni naqadar yuqori darajada imkoniyatlarni bilishligi va uning mukammal darajada ijro qila olishligi muhimligini ko‘rsatib beradi. Shuni ta’kidlash joizki asar ijrochi bilan birga

hamsuhbatlikda yozilganligi bois asar yuqori darajadagi dasturga molik hisoblanib keyinchalik ham yosh avlodga namuna bo‘lib xizmat qiladi deb o‘ylayman.

Mavzu bo‘yicha savollar:

1. Kompozitor Oydin Abdullayeva haqida qanday ma’lumotlarga egasiz?
2. “Konsert” so‘zining ma’nosini tushuntirib bering?
3. Frigiy ladi haqida qanday tushunchaga egasiz?

Mavzu bo‘yicha topshiriqlar:

1. Klavirda qanday musiqiy atamalar qo‘yilganligini aniqlang va ularning ijrolari borasida tushuntirish bering.
2. Asar tahlilini o‘qib, tushunmagan so‘zlaringizni yozib oling. Ular haqida ma’lumot to‘plang yoki ustozingizdan so‘rab o‘rganing.
3. Al’t nay va uning asar ijro ahamiyati borasida tushuncha bering.

Sherzod Sobirov. Nay va orkestr uchun Fantaziya

Sh.Sobirovning Fantaziyasi[8] zamonaviy o‘zbek kompozitorlik yo‘nalishining yana bir yangicha qarashlari bilan o‘ziga xosdir.

Asarda cholg‘uning turli imkoniyatlarini yaratish borasida, asarning *kirish qismi* zamonaviy nota yozuvlaridan ham foydalanilgan. Bundan tashqari – asar davomida bir necha bor lad o‘zgarishlarini kuzatishimiz mumkin.



Kirish qismida yangragan mavzu haqiqiy o‘zbek milliy musiqasining jozibador koloritini eslatadi.

Bosh partiyaning mavzusi raqsona xarakterda yozilgan bo‘lib, uning o‘ziga xosligi - ijrochidan kuchli mahorat talab etadi. Mazkur qism davomida cholg‘uning turli texnik uslublari ijrochi tomonidan cholg‘uning birin-ketin almashish jarayonlarini kuzatishimiz mumkin. Ya’ni oddiy nay cholg‘usi bilan boshlanib keyinchalik nay pikkolo cholg‘usiga o‘tishi asarning yana bir o‘ziga xos jihatlaridan biridir.

[8] Fantaziya (yunonchadan - phantasm –“Tasavvur”) - cholg‘u ijrochiligi ichun yaratilgan asar turi. Bu kabi asarlar odatda, improvizatsiya (badihago‘ylik) bilan boshlanib, muallif o‘z fikrlarini erkin va keng holda bayon etishi mumkin.



Asarning *yondosh mavzusi* bosh mavzuga nisbatan og‘irroq tempda frigiy ladida (si minor) yozilgan. Bu holat aynan yondosh partiya mavzusiga xos bo‘lib asarning melodik ohangi sharqona uslubdagi kuychan mavzu bilan qism davomida bir necha bor eslab o‘tiladi. Bu qismda ijrochi aynan al’t nay cholg‘usida mavzuni xarakterini ochib berishi asarning mohiyatini yanada boyitadi.



Bu qismning yana o‘ziga xosligi polifonik imitatsiyalardan foydalanilganligi alohida ahamiyatga ega.



Asarning *reprizaga* zarbli cholg‘ular orqali o‘tishi tinglovchiga yana ham ko‘tarinkilik baxsh etadi. Reprizada bosh mavzu takrorlanadi. Asar so‘ngidagi xotima garmonik jihatdan mukammal boyitilib, asar yakuniga haqiqiy tugallov xarakterini ochib bergan.



Milliy ohanglarni o‘z ichiga olgan mazkur asar ijrochiga har tomonlama cholg‘uni naqadar yuqori darajada imkoniyatlarni bilishligi va uning mukammal darajada ijro eta olishligi muhimligini ko‘rsatib beradi.

Shuni aytib o‘tish kerakki, asar B.Dosimbetov bilan hamkorlikda yaratilganligi sababli, go‘zal va mukammal asar sifatida tan olinadi.

Mavzu bo‘yicha savollar:

1. Kompozitor Sherzod Sobirov haqida qanday ma’lumotlarga egasiz?
2. “Fantaziya” so‘zining ma’nosi nima? Nay uchun yozilgan yana qanday fantaziyalarni bilasiz?
3. Polifonik imitatsiya nima?

Mavzu bo‘yicha topshiriqlar:

1. Asar shakli va ularning qismlari haqida so‘zlab bering.
2. Bosh va yordamchi (yondosh) partiyalar bir – biridan nimalari bilan farq qilishini tushuntiring.
3. Nay ijrosida vibratsiya va uning ahamiyati haqida so‘zlab bering.

M.Atadjanov. Nay va orkestr uchun Konsert

Ushbu konsert 2018-yilning bahor oylarida yaratilgan va mohir sozanda B.Dosimbetovga bag‘ishlangan.[9]

Konsert bir qismli bo‘lib (asosiy tonalligi re major, Allegro, 4/4), asosiy ohangda o‘ziga xos sharqona ohanglarga yo‘g‘rilgan milliylik sezilib turadi. Ushbu ohanglar rivojlanib jaz yo‘nalishida davom etadi. Ritmik usullar ham ohangga qarab o‘zgarib boradi. Kadensiya qismida “Chapandozi Suvora”[10] “sitata” sifatida ishlatilgan.

[9] Kompozitor klavirga aynan shunday so‘zlarni kiritgan.

[10] Suvora (fors. — otliq) — 1) Shashmaqomning Buzruk maqomi asosida yaratilgan kuy va ashulalar. 2) Xorazmda mashhur bo‘lgan maqom ashula yo‘llari va mumtoz ashulalar turkumi. Ushbu maqomlarda Suvoralar asosiy sho‘balardan keyin o‘rin olgan. Murakkab shaklli Suvora ashula yo‘llari ham xalq orasida keng tarqalgan. Ular 7 ta yirik ashula turkumlariga birlashgan bo‘lib, har bittasida 2 tadan Savt va Ufarlar mavjud: «Suvora» («Tani» yoki «Ona S»),

Konsert sonata shaklida yozilgan, rivojlanish qismi o‘rniga epizod ishlatilgan. Asarda nay cholg‘usiga xos texnika, turli shtrixlar va zamonaviy ijro uslublari tez-tez almashib keladi va ijro uchun sozandadan yuqori mahorat talab etadi.

Repriza qismi esa oynaviy (zerkalniy) shaklda yozilgan.

Asar orkestr ijrosi (fortepiano) bilan boshlanadi va to‘rt takt davom etadi. Xarakter jihatdan lirik jaranglasada, ichki hayajon sezilib turadi. Beshinchi taktdan solo (nay) ijrosi boshlanadi. Yakkanavoz partiyasi o‘n oltitalik notalar aksent belgilari bilan berilgan bo‘lib, shiddatli xarakterga ega. Dinamika (***f***). Orkestrdagi ritmik ijro hayajonni yanada oshiradi. Agar, yakkanavoz va jo‘rnavoz sezgisi hamjihat bo‘lsa, eshituvchilarni tezda o‘ziga jalb qilib oladi. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, yakkanavoz partiyasida berilgan aksentlarning o‘z joyida ijrosi juda muhimdir.



To‘qqizinchi taktdan konsertning o‘ziga xos ko‘rinishlari eshitila boshlaydi. Unda nay va orkestrning ijrochilik bo‘yicha kichik musobaqasi rivojlanish tomon o‘sib borishiga ishora beradi. Yakkanavozdan to‘liq ijro talab etiladi. Har bir taktda ligalar berilgan bo‘lsada, notalarning dona-dona ijrosini ta’minlash uchun harakat qilish lozim. Zero, asarning o‘ziga xos xarakteriga putur yetadi.

«Chapandozi Suvora» («Tojik S»), «Yakparda S», «Xushparda S», «Qajhang S”. Suvora yo‘llaridan M. Yusupov, A. Otajonov, S. Hayitboyev kabi kompozitorlar foydalanishgan. (adab.: Xarratov M., Xorazm musiqiy tarixchasi (2 nashri), T., 1998)



O‘ttizinchi taktdan tonallik almashadi (Re major – sol’ minor). Ushbu taktdan yondosh partiya kirib keladi. Alteratsiya belgilari sol minorga tegishli bo‘lsada, asosiy ohang mi minorda jaranglaydi va o‘ziga xos lirik xarakterda jaranglaydi. Lekin, ohangda berilgan o‘n oltitalik notalar, triollar va garmonik og‘ishmalar ichki hayajonni ushlab turadi.



Qirq uchinchi taktdan yana re major o‘zining tantanavor xarakteri bilan kirib kelsada, ohangda yordamchi partiyadagi mayinlik sezilib turadi. Trellar yengil olinib, liga va legatolarga chuqurroq ahamiyat beriladi. Labni nayga niqtash va yengil nafas olish jumlani to‘laqonli ijrosiga to‘sqinlik qiladi. Shu sababli, aynan ushbu qismda lirik ijroni sezib turish maqsadga muvofiqdir.

Keyingi jumlalar do diez minor va re majorlarda jumlalar o‘tadi. Ular ijrosida ham yuqorida aytib o‘tilgan ijro uslublari saqlanib qoladi.

To‘qsoninchi taktdan jaz ijrosi boshlanib, rivojlov qismi kirib keladi. Orkestr ijrosida ikki takt davom etgan ritmik tuzilish, noturg‘un ritmga o‘xshab eshitiladi. Lekin bu aynan jazning yaqqol ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, yaxshi ijrochi ritmik ijroni tezda anglab oladi. Usulning ikkinchi taktining ikkinchi yarmiga yakkaxon ijrosi

boshlanishi sababli, bu taktlarda ritmni yaxshi his etib turish juda muhimdir.

Jaz ijrosi, sozandadan: ritmni a’lo darajada sezish, nafas va lab texnikalari, jumla va dinamik ijroni his etish qobiliyatlarni talab etadi. Shu sababli, ayna ushbu qismga ichki tayyorgarlik yuqori darajada bo‘lmog‘i shart.



Jaz ijrosi o‘z ichiga re major, do diez minor va so‘ngi lya minorlardagi jumlalarni o‘z ichiga oladi va bir yuz o‘ttiz birinchi takdagi Kadensiyaga olib kelib beradi (lya minor).

Shuni esda tutish lozimki, kadensiya – sozandaning bor mahoratini ko‘rsatadigan qismdir. Kompozitor ijrochining barcha qirralarini ishga solish uchun, shtrixlar, ijro uslublari, dinamika, milliy va nomilliy ohanglardan keng foydalangan. Shuningdek, “Chapandozi Suvora”ning ashula yoki musiqa yo‘lini yaxshilab eshitib olishingizni maslahat beramiz. Chunki, yuqorida aytib o‘tganimizdek, kompozitor ushbu maqomdan bir qism ishlatgan. Agar, siz ushbu maqom yo‘lini yaxshi bilsangiz, o‘sha jumlani bemalo topib, xalqona yo‘lda ijro etishingiz mumkin va bunday ijro sizning qobiliyatingizni yana bir bor namoyon etadi.



178 – taktdan repriza qismi kirib keladi (Mi minor). Yuqorida aytib

o‘tganimizdek, ushbu qism oynaviy (zerkalniy) shaklda[11] yozilgan. Unga ko‘ra avvalo yordamchi ijrosi boshlanadi. Ushbu qism bosh partiyaga nisbatan xarakter jihatdan yumshoqroq, lekin ichki hayajon bilan ijro etiladi. Bosh partiya boshlanishida alohida alteratsiya belgisi qo‘yilmagan bo‘lsada, Re majorda jaranglaydi. Shiddat va dinamika oshib boradi. Asar xarakterini tushirib yubormaslik uchun, nafas va texnik ijrolardan oqilona foydalanish zarur. Chunki, ijroning ushbu uslublariga ahamiyat bermaslik, asarning mukammal va komil ravishda tamomlash uchun to‘sqinlik qiladi.

Konsert, ko‘tarinki kayfiyatdagi ***ff*** dinamikasida tamomlanadi.



Mavzu bo‘yicha savollar:

1. Kompozitor Muhammadjon Otajonov haqida qanday ma’lumotlarga egasiz?
2. “Suvora” so‘zining ma’nosini tushuntirib bering?
3. Konsertning qaysi qismida jaz imitatsiyalarini sezdingiz?

[11] Oynaviy shakl (зеркальная реприза) – sonata shaklidagi repriza qismining o‘ziga xos tuzilishi, sonata shaklidagi repriza qismining o‘ziga hos tuzilishi. O.Sh.da – ekspozitsiya qismida berilgan mavzularning o‘rni aksincha joylashadi, ya’ni yordamchi partiya birinchi va yordamchi partiya ikkinchi bo‘lib ijro etiladi.

Mavzu bo‘yicha topshiriqlar:

1. “Oynaviy qaytarish” (“zerkalnaya repriza”) so‘zi bo‘yicha nima ma’lumotga ega bo‘ldingiz va yana shunday tarzda yaratilgan qanday asarlarni bilasiz?
2. “Chapandozi Suvora” qaysi musiqiy turkumdan olingani va uning mavzusi asarning qaysi qismida qo‘llanilganligi haqida ma’lumot bering.
3. “Kadensiya” so‘zi va uning ijrosi haqidagi tushunchangizni so‘zlab bering.

H.Rahimov. Nay va orkestr uchun “Turkcha fantaziya”

Bugungi kunda davlatimizning barcha sohalar kabi – o‘zbek musiqa ijrochiligi san’atiga bo‘lgan katta e’tibori, shu sohada faoliyat olib borayotgan barcha ijodkorlarni chin dildan ishlashga undamoqda. O‘zbekiston kompozitorlari tomonidan yaratilayotgan ko‘plab zamonaviy talqindagi asarlar, ushbu e’tibor tufayli dunyoga kelmoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Kompozitor Habibulla Rahimovning zamonaviy talqinda yozgan, “Turkcha fantaziya”si ana shunday asarlardan biridir. Asar o‘zining go‘zal ohanglarga, texnik ijro, shtrixlar, shuningdek murakkab obrazlarga boyligi bilan alohida ajralib turadi. Asar nay va o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri uchun yozilgan, shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, ushbu asar ijrosi jarayonida, nay cholg‘usining uchta – al’t, oddiy va pikkolo turlari ishlatiladi.

Fantaziya sonata allegrosi shaklida yozilgan. Asosiy tonalligi sol’ minor (garmonik), asar davomida musiqiy surat (temp) va o‘lchovlar almashib keladi. Xarakter jihatidan – o‘ychan, falsafiy va jo‘shqin.

Fortepianoning ilk akkordi (dissonans) ijrosi, eshituvchiga o‘ychanlik olib keladi. Uning asosiy ohangi ikkinchi oktavada berilgan bo‘lsada, o‘zining mazmundor va chuqurligi sezilib turadi.

Asosiy mavzu birinchi oktava re notasidan boshlanadi. Ushbu nota oddiy nayda bo‘lmaganligi sababli, al’t nayda ijro etiladi. Uning chuqur va yo‘g‘on ovozi – **Sostenuto rubato** musiqiy atamasining talablariga javob bergan holda ohangga mung va o‘ychanlik olib kiradi. Jo‘rnavozda ritmik ijrolar bo‘lmaganligi sababli, yakkanavoz ijrosi uchun erkinlik yaratiladi.

Nafaslar chuqur olinib, to‘liq ovozda ijro etishga erishish lozim. Buning uchun sozandadan, avvalo, ichki xotirjamlik va ruhiy tayyorgarlik zarur. Notalarga qo‘yilgan aksentlar va dinamik ishoralarga diqqat bilan yondashish - asar mohiyatining ochib berish borasida muhim ahamiyatga ega.

Asosiy mavzu keng bo‘lib, agogika[12] va ichki hayajonga boydir.

[12] Agogika (yunoncha) – musiqa ijrochiligi san’atida, asar badiiyligini yanada boyitish uchun, asosiy temp va ritmdan biroz sekinlash yoki tezlash.



Yordamchi partiya – asosiy mavzuga nisbatan birmuncha harakatchan va texnik ijrochilik tomonidan yanada mukammallashgan. Ushbu partiya ham keng jumlaga ega bo‘lib, o‘ziga xos ichki agogikaga ega. Jo‘rnavozdagi garmonik tuzilmalar asosiy ohangni yanada boyitadi va yakkaxonni yanada hayajonli ijroga undaydi. Buning uchun yakkaxondan – texnik ijro, ichki sezgi, ansamblni eshitish, ohangdorlikni ma’romida his etish kabi kasbiy fazilatlar talab etiladi.



Rivojlov qismi – yakkanavozda mayin va legatoli ohang berilgan bo‘lsa-da, jo‘rnavozda berilgan yoyiq garmoniyadagi sekstol va yordamchi mavzular ichki hayajonni oshiradi. Ijrodagi temp, ekspozitsiya qismiga nisbatan bir oz oldinga siljishi kuzatiladi. Detashe shtrixida berilgan sakkaztalik va choraktalik triollar asarda o‘ziga xos sinkopa yaratadi. Bu esa eshituvchiga ichki bezovtalik va jumla so‘ngi qanday tugashini tezroq bilish hissini uyg‘otadi. Kalitda alteratsiya belgilari berilmagan bo‘lsa-da, notalar oldiga qo‘yilgan belgilardan Mi major ekanligini sezamiz.



Rivojlov qismining eng avj qismi orkestr (fortepiano) ijrosiga berilgan bo‘lib, temp jihatidan yanada tezlashadi (achchelerando). Dinamik va agogik ijrolar o‘zaro bellashadi. Ijrochidan asar xarakteri, shiddat hamda harakat to‘xtab qolmasligini talab etadi. Unda ***ff*** dinamikasidagi **tutti** ijrosi asosiy jumlalarni egallaydi. Ushbu qism dissonans akkordlardagi ijro bilan tugab, yakkanavozning kadensiya ijrosiga olib keladi.



Kadensiya boshlanishida, jo‘rnavoz ijrosidan so‘ng ko‘p kutib qolmaslik kerak. Aksincha, jo‘rnavoz tugatgan fikr va hayajonni tezroq davom ettirib ketish lozim. Nayda to‘rtinchi oktavada berilgan si notasi - nay pikkoloda olinganligi ma’qul. Orada cholg‘uni almashtirib olishga yakkanavozda yetarli vaqt bo‘lganligi uchun bemalol ulgursa bo‘ladi. Shuni esda tutish lozimki, kadensiya yakkanavozning har tomonlama mahoratini, kompozitorning fikri va asarning tub mohiyatini ochib beradigan asosiy qismdir. Shu sababli, ushbu qismga diqqat va e’tibor bilan yondashish lozim. Unda kompozitor tomonidan qo‘yilgan har bitta shtrix va musiqiy ko‘rsatmalarga rioya qilish talab etiladi.



Repriza qismi oynali shaklda bo‘lib, unda – ushbu uslubning talabiga ko‘ra – avvalo yordamchi partiya kirib keladi. Musiqiy tezlik – Allegretto, o‘lchov 4/4, sol’ minor.

Ushbu jumlada yakkanavoz ijrosidagi asosiy ohang va orkestrdagi yordamchi ohang bir - birini o‘zaro to‘ldirib boradi. Ijro xarakteri – ohanglar va garmonik uyg‘unlikda yanada hayajonli tus oladi.



Asar asosiy mavzu ohanglari bilan yakunlanadi. Unda – o‘tgan hayajon va to‘lqinlarni yana bir bora eslash maqsadi ilgari surilgan. Bunda bosh partiyaning (asosiy mavzuning) g‘am va o‘ychanlik ruhidagi ijrosini esga olish lozim. So‘nggi uchinchi taktda ***sf*** berilgan bo‘lsa-da, yakkanavoz va jo‘rnavoz ijrolari asar so‘ngiga qadar so‘nib boradi (*diminuendo* va ***pp***) bu esa tinglovchi qalbida ichki xotirjamlik bilan bir oz o‘ychanlik qoldiradi.



Asar juda qiziqarli bo‘lib, yuqori kasbiy mahorat bilan puxta yozilgan. Ijro jarayonida uch xil nayning ishlatilishi va agogikaning ko‘p uchrashi, sozandalardan o‘ziga xos mahorat talab etilishiga yaqqol misoldir.

O‘zbek kompozitorlari tomonidan bunday salmoqli asarlar kamdan - kam bo‘lsada yaratilgan va yaratilmoqda. Bu esa sozandalarning kasbiy mahoratini o‘sishiga katta yordam bo‘libgina qolmasdan, ularning konsert ijrochiligini repertuarini munosib tarzda to‘ldirib, tomoshabinlarning ma’naviy dunyosini o‘sishiga katta yordam berib kelmoqda.

Mavzu bo‘yicha savollar:

1. Kompozitor Habibullo Rahimovning xalq cholg‘ulari uchun yozgan yana qanday asarlarini bilasiz?
2. Asarda al’t nayi nima uchun ishlatilgan?
3. Konsertning qaysi qismida jaz imitatsiyalarini sezdingiz?

Mavzu bo‘yicha topshiriqlar:

1. Chet el mavzularida (masalan: turk, arab, hind, venger va h.k.) aynan xalq cholg‘ulari uchun yozilgan asarlar borasida ma’lumot to‘plang va ular haqida so‘zlab bering.
2. Ushbu asar nima uchun g‘amgin ruhiyatda tugatilganligi borasidagi fikrlaringizni tushuntirib bering.
3. Asarda berilgan barcha musiqiy atamalarni daftaringizga yozib oling va ularning ma’nolarini yodlab oling.

N.Baxadirov. Nay va orkestr uchun Intermesso

Noil Bahodirov uzoq yillardan beri pedagoglik (Guliston san’at kolleji) faoliyatni olib borish bilan birga, kompozitor sifatida ham turli cholg‘u va orkestrlarga go‘zal asarlar yaratishi bilan elga tanilgan hamda musiqa sohasi vakillari orasida o‘z obro‘siga ega. Uning orkestr bilan (dirijyor) bergan barcha konsertlari tomoshabinlar tomonidan gulduros qarsaklar bilan kutib olinadi. Konsert borasida repertuarlarni o‘zi tanlab, yakkanavoz sozanda o‘quvchilarni tayyorlab konsertlarga olib chiqadi.

Ana shunday ajoyib asarlaridan biri nay va orkestr uchun "Intermetso"[13] asari bo‘lib, ushbu asar ham o‘zining xalqona ohanglarga, ritmik jo‘shqinligi bilan sozandalar va tinglovchilarni qalbidan munosib o‘rin olgan.

Asar qirim tatar (xaytarma) va bolgarlarning (xoro) xalq kuylari mavzulariga juda o‘xshash bo‘lib, raqsbop xarakterga ega. O‘lchov – 2/4, Presto, mi minor, oddiy uch qismli shaklida yozilgan.

To‘rt taktlik kirish qismiga ega – **Allegro moderato.** Xarakteri salmoqli va salobatli. Nafaslar chuqur, notalar bo‘liq olinsada, ijroda yengillik saqlanib qoladi.



Birinchi qism mavzusi yengil va quvnoq xarakterda. 2/3 va 3/2 o‘lchovlar aralashib keladi. Ohanglar asosan o‘n oltitalik nota cho‘zimidagi triollarga asoslangan. Ushbu uslub bolgar va qrim-tatar xalqlarining musiqa ijrochiligiga mos bo‘lib, ushbu millatlarga xos rang va xarakter beradi. Texnik ijrosi – tez. Ijro jarayonida jumlalar orasidagi nafaslarni o‘z joyiga qo‘yib olish juda muhim.



O‘rta qism kichik kadensiya orqali re majorga o‘tadi. Lekin, shiddat jihatidan birinchi qismga nisbatan tez va olovli. Muallif tomonidan **con moto, imit, zimb., ritmico** (harakat bilan, simbalaga[14] o‘xshatib, yanada aniq ritm bilan) atamalari berilganligi, ushbu qism yanada tezroq va aniqroq ijro etilishi lozim.

[13] Intermetso (ital.intermezzo, lot. intermedins – „o‘rtadagi", „bog‘lovchi") – asosan operalarda xor, vokal yoki cholg ‘u uchun yaratiladi. XIX asrda intarmetso mustaqil asar sifatida yaratila boshlangan. (Shuman, Brams, Mendelson asarlarida).

[14] Simbala – qadimiy urma – torli cholg‘u bo‘lib, asosan Bolgariya, Ukraina, Rossiyaning shimoliy-g‘arbi, Ruminiya, Vengriya, Polsha, Chexiya, Slovakiya, Sloveniya va Xorvatiya kabi davlatlarda, milliy cholg‘u sifatida qadrlanadi.



Birinchi va uchinchi qismlarini o‘zaro bog‘lovchi kadensiya qismi yana mi minorda kirib keladi. Yuqorida aytib o‘tgarimizdek - kadensiya yakkanavozning har tomonlama mahoratini, kompozitorning fikri va asarning tub mohiyatini ochib beradigan asosiy qismdir. Shu sabali, ushbu qismga diqqat va e’tibor bilan yondashish lozim. Unda kompozitor tomonidan qo‘yilgan har bitta shtrix va musiqiy ko‘rsatmalarga rioya qilish talab etiladi.



Uchinchi qism ham birinchi qism kabi shiddatli va raqsbob xarakterga ega bo‘lib, mi minorda davom etadi hamda ritmik va o‘lchov o‘zgarishlariga boy. Trellar ijrosini o‘z vaqtida ijro etish juda muhim bo‘lib, bu orqali xalqona va sho‘x kayfiyatni yaratishga erishiladi.



Asar shiddatli ***ff*** ijrosida tugaydi.

Asarning to‘liq obrazli ijrosini ushlab turish uchun, ijrochidan texnika, lab hamda nafasdagi erkinlik, ichki harakat va albatta kasbiy mahorat talab etiladi.



Ushbu asar, quloqqa tez o‘rnaydigan ohanglarga ega bo‘lsa-da, barcha talabalarga ham berilavermaydi. Uning mukammal ijrosini yetkazib berish uchun, nay cholg‘usida ma’lum malakaga ega va barcha ijro imkoniyatlarini ishga erkin sola oladigan sozandalarga berish tavsiya etiladi.

Mavzu bo‘yicha savollar:

1. O‘zbek xalq cholg‘ulariga o‘xshash, boshqa xalqlarning yana qanday cholg‘ularini bilasiz?
2. Intermetso nima?
3. Noil Bahodirovning xalq kuylari asosida yaratilgan yana qanday asarlarini bilasiz?

Mavzu bo‘yicha topshiriqlar:

1. Intermetsoga o‘xshash – rapsodiya, qasida, syuita kabi janrlar haqida mahlumot to‘plang va ularning o‘ziga xos tomonlarini tushuntirib bering.
2. **Ad libitum**ga o‘xshash yana qanday musiqiy atamalar bor va ular ijroda nimalari bilan farq qiladi?
3. *Sonata allegrosi* shakli haqida nimalarni bilasiz va u qanday qismlardan iborat?

M. Bafoyev. Nay va orkestr uchun konsert

Kompozitor Mustafo Bafoyev O‘zbekistonning zabardast kompozitorlaridan biri bo‘lib, musiqaning barcha janrlarida ijod qilgan. Uning barcha asarlari tomoshabinlar tomonidan gulduros qarsaklar bilan kutib olinadi. Kompozitor xalq cholg‘ulari ijrosiligida ham o‘zining go‘zal asarlari bilan, kompozitor sifatida alohida o‘rin tutadi. Chunki u xalq cholg‘ularining barcha sozlari uchun maxsus yozilgan, kichik pyesalardan tortib yirik shakldagi asarlargacha yozib ulgurgan va ular sozandalar tomonidan sevib ijro etib kelinmoqda.

Nay va orkestr uchun yaratilgan ushbu konsert ham, ana shunday yirik shakldagi asarlardan biri bo‘lib, uch qisimdan iborat. Unda nay cholg‘usining ijro imkoniyatlarini yuqori darajada ochib bergan.

Birinchi qism. *Ekspozitsiya*. Lya minor tonligi, Allegro. Asosiy mavzu, uch qismdan tashkil topgan.



Bosh mavzu – sol’ minorda, fortepiano temasi nay partiyasiga kontrapunkt sifatida jaranglaydi. Ushbu jumlada yangi bir ohang paydo bo‘ldi. Unga zid ravishda esa kontrapunkt – yangi bir yo‘l paydo bo‘ldi. Jumlaning ikkinchi bo‘lagida nayda kechikib ijro etish, ya’ni kanon ijrosi ko‘rinishlari bor.



Yordamchi mavzuda ritm va o‘lchov o‘zgaradi (7/8). Lya minor. Tonalligiga dominanta, ya’ni 5-bosqichga harakat qilgan (mi). Kontrast yanada kuchayib, fa majorga yechilgan. Lekin, ohangda ko‘proq kuychanlik paydo bo‘ladi. Ushbu jumlada etyud texnikasini ishlatish bilan birga, ohangdorlik, qo‘shiq, bir oz ruhiy tushkunlik xarakterida bo‘lishi, bir so‘z bilan aytganda – nay kuylashi kerak.



Rivojlov qismida ritm, o‘lchov, tonalliklar (si bemol minor, do minor, lya minor) va xarakter o‘zgaradi. Bosh mavzu qayta ishlanib, ijroda bir oz ichki hayajon kuchayadi (Meno mosso). Aralash o‘lchovlar almashinib (5/8, 4/8) kelayotganligi sababli, ijrochidan ritmik sezgi va undagi ohanglarni ma’romiga yetkazib chalish qobiliyati zarur bo‘ldi.



Repriza (qaytarish) qismi oynaviy shaklda yozilgan bo‘lib, sonata allegrosidagi odatiy tuzilish – avval bosh partiya emas, balki yordamchi partiya kirib keladi. E’tibor berib qaralsa, ushbu partiya ekspozitsiya qismida lya minor ladida berilgan bo‘lsa, ushbu qismda yaqqol lya major tonalligida namoyon bo‘ladi. Bu esa uchinchi – repriza qismining o‘ziga xos shaxdamlik bilan kirib kelishiga dalolatdir. Dinamika (***f***), o‘lchov – 7/8.



Ushbu qism umuman olganda, kompozitor M.Bafoyevning uslubiga xos bo‘lib, unda – ritmik, usul, o‘lchov, tonalliklar tez-tez o‘zgarib tursada, milliylik va ohangdorlikni saqlab qolgan.

2-qism uch qismli murakkab shaklda yozilgan. O‘lchov 3/4, ohista (Andante) va sokin kayfiyatda yozilgan bo‘lib, ijrochidan chuqur nafas, sezgi va noziklikni talab etadi. Re minor – frigiya ladi. Shu o‘rinda frigiya ladi haqida. Ushbu lad turli millatlarning xalq kuy qo‘shiqlarida keng tarqalgan bo‘lib, o‘zbek xalq musiqalari ham bundan mustasno emas. Bundan ko‘rinib turibdiki, konsertning 2-qismi xalqona ohangdorlikka boydir.

Uch qismli murakkab shaklning birinchi qismi:



Ijro davomida ligalarni o‘z o‘rniga qo‘yib ijrosini ijro etish, asar badiiyligi va jumlalarning ifodalarini yanada oshiradi. Unda zo‘riqib nafas berish va lablarni nayga qattiq tirab olish yaxshi natija bermaydi. Shu sababli, ijrochi – erkin va ichki sezgi bilan chalishi maqsadga muvofiqdir.

Uch qismli murakkab shaklning ikkinchi qismi bir oz ichki harakat bilan ijro etiladi (Piu mosso). Major tonalligida berilgan bo‘lsada (sol’ major), ohangdagi kuychanlik va yengillik sezilib turadi.



Bu qismdagi asosiy ohang – nay ijrosida ***f*** berilgan bo‘lsa-da, jo‘rnavoz bilan uyg‘unlikni ta’minlash borasida, fortepiano ijrosini ham eshitib borish juda muhimdir. Ijrochida (nayda) ichki entikish sezilish mumkin, bunga sabab – kompozitor tomonidan berilgan musiqiy tezlikning bir oz oshishidir (Piu mosso). Shu sababli, asosiy ohang ijrosi boshlanguncha, fortepiano ijrosidagi ikki taktni yaxshilab eshitish, shuning bilan birga – ritm, tezlik va badiiy ijroni sezib olish muhimdir.

Uch qismli murakkab shaklning uchinchi qismida, birinchi qismdagi asosiy mavzu oktava yuqorida berilgan bo‘lib, aynan 2-qismning avji deb atash mumkin. Bu jumlada tezlik bir oz kamaysada, (Andante) fortepianodagi garmonik va ritmik ijro yanada boy va quyuq jaranglaydi. Nay ijrochisini badiiylik va sezgi borasidagi ichki qobiliyatini ko‘proq ishga solib ijro etishga undaydi. Ichki hayajon oshadi (danimika ***ff***).



Lekin, asar so‘ngida dinamik ijro sokinlashib boradi. Unda ichki hayajon saqlanib qolsada, mazmunan o‘ychanlik va ichki xotirjamlik kirib keladi. ***rit.*** ijrosi bilan ***pp*** dinamikasida asar ehtiyotkorlik bilan tugatiladi. Fortepiano partiyasida berilgan arpedjio ushbu qismning mazmunan boy tugatilishida o‘ziga xos rang beradi.



3-qism rondo shaklda yozilgan va ushbu shaklni ko‘pchilik kompozitorlar o‘z asarlarida ishlatgan. Rondo shakli – bir nechta epizodlardan tashkil topgan bo‘lib, asar boshida berilgan asosiy mavzu qaytarilib keladi. (Refren). Bu shaklni chuqurroq tushunish uchun, maqomlarimizdagi “xona” va “bozgo‘y” qismlarini eslang. Shuningdek “Taranella”, “Lezginka” asarlari ham shu shaklga xos. Ushbu qismda 3/8 o‘lchovi asos qilib olingan bo‘lsada, asar ijrosi jarayonida 2/8, 6/8 va 3/4 o‘lchovlar ham sezilib turadi. Texnik ijro, shtrix va dinamikalarga boy. Shu sababli, ushbu qism ijrosini boshlash oldidan, ijrochidan ruhiy tayyorgarlik va kasbiy mahorat talab etiladi.

Ekspozitsiya. Asosiy mavzu Farg‘ona - Toshkent yo‘llaridagi “Bog‘im bor” o‘zbek xalq kuyi asosiy mavzu qilib olingan. Xalq kuylarini o‘z asarlarida asosiy mavzu sifatida ishlatilishi: jahon kompozitorlari (M.Teodorakis, P.I.Chaykovskiy, J.Rossini, F.Amirov, U.Xojibekov, M.Glinka va b.) bilan birgalikda O‘zbekiston kompozitorlarining (M.Burhonov, M.Otajonov, R.Abdullayev, U.Musayev, M.Tojiyev, M.Ashrafiy va b.) asarlarida ham keng tarqalgan.

Asosiy mavzu, asar tezligi **Presto:**



1-epizod (ko‘rinish) si minorda, dinamika (***f***), yordamchi mavzu. 3/4 o‘lchovi saqlab qolingan bo‘lsa-da, ijro go‘yoki 2/4 o‘lchovida jaranglaydi, xarakter jihatidan esa lirik va bir oz sokin bo‘lib, asosiy mavzuga qarama-qarshidir. Dinamika (***mf***). shunday bo‘lsa-da, ijrochilardan ichki intilish va asar ruhiyatini saqlab qolish talab etiladi.



Rivojlov. Ushbu epizoddan keyingi keladigan refren – asosiy mavzu, bir oz o‘zgargan shaklda kirib keladi (re minor). Unga ko‘ra asosiy mavzu fortepianoda (yoki orkestrda) bo‘lib, yakkaxonning ijro yo‘li ikkinchi darajaga o‘tadi. Lekin keyinchalik nay ijrosi duol, triol va o‘n oltitalik notalar bilan rivojlanib borishini hisobga olib, asosiy ohang ijrosi yaxshi eshitilib turishiga e’tibor berish lozim.



Keyingi keladigan epizod ham, lirik va o‘ziga xos xalqona ohanglarda yozilgan. Tonallik sol’ major, eshitilish jihatidan 2/4 o‘lchovida jaranglaydi. Repriza qismiga qadar jumlalar rivojlanib boradi. Ijro davomida jo‘rnavoz va yakkanavoz partiyalarida o‘ziga xos savol-javob, ya’ni ichki musobaqa paydo bo‘ladi.



Repriza. Asosiy mavzu lya minorda kirib keladi (20 raqam). Ijroda yana jo‘shqinlik va hayajon boshlanadi. Ijrochilikdagi ichki musobaqa, jumlalar ichida yanada kuchayadi.



Asar *Koda* qismi bilan yakunlanadi (24 raqam). Jo‘rnavoz partiyasida **tutti** ijrolari sezilsa, yakkanavoz partiyasida aksent, stakkato shtrixlari bilan birga, o‘n oltitalik triollar, keyinchalik esa oltmish to‘rttalik kvartollar bilan paydo bo‘ladi.



Konsert kuchli dinamika (***ff***), texnik ijrolar, nayda frullato va orkestrning aktsentli akkordlari bilan tantanavor kayfiyatda tugatiladi. Ushbu kayfiyatni paydo qilish uchun, ijrochilar so‘ngi kuchlari va mahoratlarini ishga solish lozim. Zero, asar tomoshabinlarni hayratga solishi, sozandalarning aynan Koda qismi ijrosiga katta e’tibor bilan qarashi hamda uning ijrosida mukammallikka erishish bilan bog‘liqdir.



Mavzu bo‘yicha savollar:

1. Ekspozitsiya nima va u nimalarni o‘z ichiga oladi?
2. Konsertda qanday o‘lchovlar ishlatilgan va ular qanday turga mansub? Aralash o‘lchov nima?
3. “Repriza” qismi boshqa klassik uslubda yaratilgan konsertlardan nimasi bilan farq qiladi?

Mavzu bo‘yicha topshiriqlar:

1. Kompozitor M.Bafoyevning hayoti va ijodini o‘rganing. Uning ijodidagi o‘ziga xos tomonlarini aytib bering.
2. Rondo shakli haqida tushuntirish bering va yana ushbu shaklda yozilgan asarlar haqida ma’lumot to‘plang.
3. O‘zbek musiqasida “Farg‘ona – Toshkent” maqom yo‘llariga qanday asarlar kirish borasida ma’lumot to‘plang va yana qanday maqom yo‘llari borligi to‘g‘risida so‘zlab bering.

III bob. Kompozitorlar va naychi ustozlarning hayoti va ijodi

Oydin Abdullayeva

O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi a’zolari safiga yorqin iste’dod sohibi, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindori, kompozitor Oydin Abdullayeva 2000-yilda qabul qilindi. U konservatoriyada o‘qib yurgan paytlaridan boshlab o‘ziga xos «ovozi» va jamoatchilik faoliyati bilan zamonaviy o‘zbek professional musiqa san’atiga kirib keldi.

Oydin Otamurodovna Abdullayeva 1976-yilning 6-martida Toshkentda tug‘ilgan. Oydin bolaligidan musiqaga qiziqadi. 1983-1994 yillarda R.Glier nomidagi Respublika maxsus musiqa maktab-internatida violonchel’ sinfida va bastakorlik mutaxasisligidan saboq oldi. 1994-1999 yillarda M.Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasining kompozitorlik fakultetida, 1999-2001-yillarda assistentura-stajirovkada A.Mansurov sinfida tahsil oldi. 2001-yilda Navoiy, Zulfiya va Erkin Vohidov she’rlari asosida rejissor Ferudin Safarov librettosiga «Vafo» opera-oratoriyasini konservatoriyaning opera studiya jamoasi ijrosida (dirijor G‘ani To‘laganov) komissiyaga havola etib, konservatoriyaning assistentura-stajirovkasini muvaffaqiyatli bitirdi.

O.Abdullayeva o‘qish jarayonidayoq eng yaxshi asarlar uchun talaba yoshlar o‘rtasida o‘tkazilgan bir necha tanlovlarda mukofotlarga sazovor bo‘ldi. Musiqiy tanqid va jurnalistika bilan ham shug‘ullanib, ilmiy anjumanlarda qatnashib turadi, maqolalari gazeta va to‘plamlarda e’lon qilingan.

O.Abdullayeva 1999-yildan buyon konservatoriyada yosh avlodga musiqa sirlaridan saboq berib kelmoqda. Bugungi kunda konservatoriyaning “Bastakorlik va cholg‘ulashtirish” kafedrasi mudiri, professor vazifasini bajaruvchi lavozimlarida faoliyat olib bormoqda.

Kompozitorning fortepiano uchun uch qismli Sonatinasi, Prelyudiya va Tokkatasi, chang va fortepiano uchun «Konsert kuyi», violonchel uchun Fantaziyasi, torli trio uchun Syuitasi, truba va fortepiano uchun Fantaziyasi, damli cholg‘ular kvarteti uchun Variatsiyalari, torli orkestr uchun Poemasi, bariton va fortepiano uchun Umar Hayyom ruboiylariga besh qismli turkumi, rubob-prima va fortepiano uchun «Konsert kuyi», simfonik orkestr uchun «Poema-fantaziya», saksofonlar kvarteti uchun jaz uslubidagi miniaturalari, 4 qismli torli kvarteti, simfonik orkestr uchun A.Bedilning «Komde va Modan» asari asosida «Sevgi haqida doston» simfoniyasi, qashqar rubobi va xalq cholg‘ulari orkestri uchun Konsert, soprano va fortepiano uchun Zulfiya she’riga «Hijron kunlarida» va ayollar xori uchun romanslari, Hamroqul Rizo she’riga «Yor-yor» va U.Hayyom ruboiylariga «Kelib ketmoqdamiz...», «Jadidlar xotirasi»ga bag‘ishlangan simfonik poema, 50 dan ortiq estrada qo‘shiqlari tinglovchilarga yaxshi tanish.

O.Abdullayeva teatr va kino musiqasi janrlarida ham faol ijod qilib kelmoqda. Uning “Osmonning bag‘ri keng”, “Farishtali ayol” (S.Sirojiddinov asarlari), “Ko‘nglimning ko‘chasi” (N.Abbosxon asari), “Tobutdan tovush” (A.Qahhor asari), “Qizi borning nozi bor” (H.Rasul asari), “Parivashga parvonaman” (N.Abbosxon

asari), “Soxta nogiron” (Qing‘ir ishning qiyig‘i) singari musiqali drama va komediyalari Muqimiy nomidagi O‘zbek davlat musiqali drama teatrida sahnalashtirilgan. 2004-yil “O‘zbekteatr” ijodiy birlashmasi tomonidan o‘tkazilgan “30+1” zamonaviy teatr spektakllarining Respublika tanlovida «Eng yaxshi musiqali drama uchun» nominatsiyasida “Osmonning bag‘ri keng” (S.Sirojiddinov asari) spektakliga yozgan musiqasi uchun g‘olib deb topilgan. O‘zbekiston davlat milliy akademik teatrida ispan dramaturgi A.Kassone asari asosida sahnalashtirilgan “Daraxtlar tik turib jon beradi” spektakliga musiqa bastalagan. “Sevgi farishtasi”, “Yodgor” “Shohsupa”, “Dugonajonlar” teleseriallarining, “Hikmat chirog‘i” nomli bolalar fil’mining musiqa muallifi.

O.Abdullayeva «Ansambl cholg‘ularini o‘rganish» nomli san’at kollej va litseylari talabalari uchun mo‘ljallangan o‘quv qo‘llanmasi, musiqa maktablarining 7-sinf o‘quvchilari uchun «Sol’fedjio», oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun “Bastakorlik san’ati”, “Cholg‘ushunoslik” darsliklari muallifi.

O.Abdullayeva ijodiy, o‘qituvchilik, ma’rifiy-jamoatchilik faoliyati bilan respublikamiz musiqa rivojiga baholi qudrat hissa qo‘shib kelmoqda.

O.Abdullayeva 1997-yilda M.Ulug‘bek nomidagi Respublika jamg‘armasining 1-darajali mukofoti, 1998-yili Respublika yoshlar «Kamolot» jamg‘armasi mukofoti, 2000-yilda Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga, 2015-yilda “E’tirof” mukofotiga sazovor bo‘ldi.

Nail Baxadirov

Nail Sharifovich Baxadirov 1951-yil 8-aprelda Sirdaryo viloyati Guliston shahrida xizmatchi oilasida 5-6 yoshda garmoshka, keyinchalik bayan chalishni o’rgandi. Xalq kuylarini radio va gramplastinkalar orqali og‘zaki tarzda yodlab, do‘stlari va qarindoshlari orasida ijro etardi. O‘rta maktabda o‘qigan yillari davomida turli ko‘rik tanlov va festivallarda qatnashdi. Maktabda o‘qish bilan bir vaqtda Guliston shahri o‘quvchilar saroyi qoshidagi musiqa maktabiga ham qatnaydi. 1966-yili Toshkent davlat musiqa bilim yurtiga qabul qilinadi. N.Baxadirov xalq cholg‘ulari bo‘limining bayan sinfida o‘qituvchi P.A.Nikolayev va dirijorlikdan o’qituvchi T.A. Xomyakovlardan ta’lim oladi.

N.Baxadirovning mehnat faoliyati 1967-yildan boshlandi: u “Oktabr inqilobi” klubi qoshidagi musiqa togaragidagi va ayniqsa A.F. Volkov rahbarligidagi vokal to‘garagida jo‘rnavoz bo‘lib ishlagani esida qolgan. Chunki bu togarakda o‘z vaqtida taniqli xonandalar B.Zokirov, G.Shin, Yu.Turayevlar tahsil olishgan.

1970-1972-yillari harbiy xizmatni o‘tadi. 1972-yildan Gulistondagi musiqa maktabida ishlab, o’quvchilar orkestri tuzib unga rahbarlik qiladi.Ushbu orkestrda dirijorlik uslubini amaliyotda o‘zlashtiradi.

1977-1982-yillari Moskva davlat Madaniyat institutida o‘qiydi. Institutda N.Baxadirov mutaxassislik bo’yicha taniqli sozanda, Rossiya Federatsiyasida xizmat ko‘rsatgan sa’nat arbobi V.N.Lyutov, orkestr dirijorligi sinfi bo‘yicha o‘qituvchi S.I.Butinova, cholg‘ulashtirish fanidan taniqli kompozitor E.N.Artem’yevdan ta’lim

oladi. Moskvada o’qigan yillari turli konsertlarda bo‘lib, taniqli dirijorlar va nufuzli orkestrlarning chiqishlarini tomosha qiladi. N.Baxadirov ko’p vaqtini turli orkestrlar repetitsiyalarida dirijorlarining ish jarayonini kuzatib yurgan damlarida o‘tkazadi. Bu ham unga ma’lum darajada maktab bo‘ldi: u mashhur san’atkorlar bilan uchrashadi, ulardan kerakli maslahatlar oladi.

1980-yildan Guliston davlat san’at bilim yurtida ishlay boshlaydi. U yerda N.Baxadirov o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestriga rahbarlik qilib, ijod va ijro mahoratini oshiradi. Orkestr uchun rang-barang asarlarni qayta ishlaydi, o‘zi ham orkestr uchun turli janrlarda asarlar yaratadi.

1986-1988-yillari O‘zbek filarmoniyasining T.Jalilov nomidagi xalq cholg‘ulari orkestrida ishlaydi. Bu davr ham N.Baxadirov uchun juda foydali buldi. Professional orkestr darajasida uning tabiatini va imkoniyatlarini chuqurroq o‘rgandi, dirijyorlik san’ati bo‘yicha malakasini oshirdi.

Muhammadjon Atadjanov

Kompozitor Muhammadjon Atadjanov 1959-yil 16- sentybrda Urganch shahrida tug‘ilgan. 1982-yilda Toshkent davlat konservatoriyasini fortepiano, 1989-yilda bastakorlik ixtisosliklari bo‘yicha tugatgan. O‘zbekiston davlat konservatoriyasi bastakorlik va cholg‘ulashtirish kafedrasi dotsenti. M.Atadjanov Respublika qo‘shiqlar va pianinochilar tanlovlari sovrindori.

M.Atadjanovning asarlari professional darajada yaratilganligi, o‘zining milliyligi, serjiloligi bilan ajralib turadi. Kompozitor ijodiy faoliyati jarayonida bir qator janrlarga murojaat etgan. Fortepiano va orkestr uchun №1, №2 Konsertlari, chang va xalq cholg‘u orkestri uchun Konsert, simfonik orkestr uchun syuitalar, kamer cholg‘u asarlari, «Bobur», «Chirog‘imni kim yoqadi», «Dilbar yuraklar» musiqali daramalari, «Gunoh» fil’miga yaratilgan musiqa kompozitor ijodining yorqin namunalarini tashkil etadi. «Shirin xotira», «Yashnagan o‘lkamga boq», «O‘zing yagona», «Ona yurtim» kabi 50 dan ortiq qo‘shiqlari, «Qarashlaring», «Shirin xotira», «Sog‘indim», «Yashnagan o‘lkamga boq», «Gulchehra qiz o‘ynasin», «To‘y bo‘lsin», «Ona yurtim» estrada qo‘shiqlari tinglovchilar tomonidan yuqori baholangan.

Bolalar qo‘shiqchiligi va ijrochiligi borasida ham kompozitor bir qator samarali yutuqlarga erishdi. 2000-yilda kompozitorning bolalar uchun «Guldasta» nomli fortepiano pyesalari to‘plami nashr etildi. «Sho‘x chumchuq», «Bolalarning ko‘zlari», «Onajon O‘zbekiston», «Yurt diyori» kabi 50 ga yaqin bolalar uchun yaratgan qo‘shiqlari jajji va o‘smir bolajonlar tomonidan sevib kuylanib kelinmoqda.

M.Atadjanov Respublikamiz bo‘ylab ko‘pgina musiqa maktablari, kollejlar va litseylarda muntazam konsert uchrashuvlar tashkil etib, o‘quvchilarning ma’naviy dunyosini yanada kengayishida o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda. Kompozitorning asarlari «Mustaqillik» va «Navro‘z» davlat tantanalarida ham muntazam ijro etib kelinmoqda. Xususan, kompozitor qalamiga mansub «Jajji go‘zal» qo‘shig‘i

«Bulbulcha» bolalar xor jamoasi tomonidan 2001-yil Navro‘z davlat bayrami konsertda muvaffaqiyatli yangradi.

1996-yildan buyon o‘tkazib kelinayotgan Xalq ta’limi tizimidagi «O‘zbekiston Vatanim manim» Respublika qo‘shiqlar ko‘rik tanlovining doimiy qatnashchisi, g‘olibi, hay’at raisi va a’zosi. 2003-yilda Toshkent shahar tizimidagi qo‘shiq bayrami ko‘rik tanlovida hakamlar hay’ati raisi sifatida qatnashdi. Kompozitorning «Qashqadaryo», «Urganch», «Navoiy» nomli qo‘shiqlari Shahrisabz, Xiva, Navoiy shaharlarida bolalar tomonidan gala konsertlarda muvaffaqqiyatli ijro etib kelinmoqda.

Sherzod Sobirov

Sobirov Sherzod Somixjonovich, 1988-yilning 30-noyabrida Bekobod shahrida tug‘ilgan.

1995-yilda Bekobod shahar 8-o‘rta maktabga kirib. 1998-2003-yillar davomida 11-bolalar musiqa san’at maktabida qashqar rubobi bo‘yicha tahsil olgan.

2004-yilda o‘rta maktabning 9-sinfini bitirib, Bekobod san’at kollejining “Akademik xonandalik” yo‘nalishi bo‘yicha o‘qishni davom ettirdi.

2007-yilda kollejni tamomlab, O‘zbekiston Davlat konservatoriyasining “Bastakorlik” kafedrasiga talabalar safiga qabul qilindi. O‘qish davrida bir qancha asarlar yaratdi. Shulardan, Fortepiano uchun prelyudiyalar turkumi, Qashqar rubobi va fortepiano uchun “Poema”, Torli cholg‘ular uchun kvartet, Simfoniya va h.z. 2011-yili konservatoriyaning bakalavr bosqichini tamomlab, shu yili magistraturaga o‘qishga qabul qilindi va muvaffaqqiyatli tamomladi. (Professor Oydin Abdullayeva sinfi). O‘quv yillari davomida bir qator tanlovlarda ishtirok etib yuqori sovrinlarga erishgan.

Hozirda yangi asarlar ustida ish olib boryapdi.

Habibulla Rakhimov

Zamonaviy o‘zbek professional musiqa san’atining namoyandalaridan biri, O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi, kompozitor Habibulla Rahimov 1970-yillarning ikkinchi yarmida O‘zbekiston Bastakorlar uyushmasi safiga kirib keldi. U turli mavzu, shakl va janrlarda xilma-xil, barkamol asarlar yaratib, musiqa shinavandalarini xushnud etib kelmoqda.

Rahimov Habibulla G‘aybullayevich Tojikiston Respublikasi Xo‘jand viloyatining Nov tumanida 1946-yilning 31-oktabrida taniqli sozanda G‘aybulla Rahimov oilasida dunyoga keldi. H.Rahimov Sodirxon Hofiz nomidagi Xo‘jand davlat musiqa bilim yurtida o‘qidi. G‘ijjak chalish bilan bir qatorda, unda musiqa bastalashga ishtiyoq tug‘iladi. Musiqa bilim yurtini bitirgach, 1964-yili Toshkent

davlat konservatoriyasi kompozitorlik fakultetining tayyorlov bo‘limiga o‘qishga kirib, B.F.Gienko sinfida tahsil oladi. 1974 yili Davlat imtihoniga shoir To‘lqin so‘ziga badiiy so‘z ustasi, yakkaxonlar, xor va simfonik orkestr uchun «Osventsim» nomli oratoriyasini taqdim etdi. 1974-1976-yillarda konservatoriyada assistent-stajerlik bo‘yicha professor B.I.Zeydman sinfida kasb malakasini oshirdi.

H.Rahimov konservatoriyada o‘qish bilan bir paytda 1969-1974-yillarda Respublika damli cholg‘ular maktab internatida musiqa nazariyasi fanidan o‘qituvchilik qildi. 1977-1989-yillarda A.Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutida o‘qituvchi, katta o‘qituvchi, dotsent, 1989 -2018-yillar mobaynida O‘zbekiston davlat konservatoriyada dotsent, professor lavozimlarida faoliyat yuritdi. Konservatoriyada ishlash bilan bir qatorda H.Rahimov 1992-yildan buyon O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasining rais o‘rinbosari lavozimida ishlamoqda.

H.Rahimov yaratgan simfonik va vokal-simfonik asarlar O‘zbekiston milliy simfonik orkestri repertuarini yanada boyitdi. «Simfonik poema» (1974), al’t va simfonik orkestr uchun «Konsert» (1975), ovoz (yakkaxon) va simfonik orkestr uchun «Konsert» (1977), Ibn Sino she’rlariga «Beshta ruboiy» (1980), Uvaysiy g‘azallariga «Beshta romans» (1983), simfonik orkestr uchun to‘rtta simfoniya — № 1 «Segoh» (1978), № 2 (1984), № 3 (1991), №4 (koreys ohanglari asosida-2007); koreys xalq kuylariga «Fantaziya» (1992), «Sayil» (1984), “Qutlov” (2000), “Xorazm jilolari” (2006) uvertyuralari, “Do‘stlik sadolari” variatsiyalari, “Mavrigi” pyesasi, “Yoshlik orzusi” uvertyurasi (2018), fortepiano va simfonik orkestr uchun «Konsertno» (1996), fleyta va simfonik orkestr uchun “Turkcha fantaziya” (2008) shular jumlasidan. Kamer orkestr uchun «Rast» (1996), «Raqs» va «Tong» (1998), “Fidayda-1, -2” (2000) kuylari, ud va kamer orkestr uchun «Fantaziya» (1997), fleyta va kamer orkestr uchun «Oqshom qo‘shig‘i» (1999), dutor va kamer orkestr uchun «Qo‘shtor» (2000), «Termalar» fantaziyasi (2001), qashqar rubobi va orkestr uchun «Arabcha konsert- poema» (2000). H.Rahimov o‘zbek kompozitorlaridan birinchi bo‘lib organ cholg‘usi, arfa, torli va zarbli cholg‘ular uchun «Konsert-fantaziya» (1976) yaratdi.

H.Rahimov o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri uchun ham bir qator asarlar yaratdi. Jumladan, qashqar rubobi va orkestr uchun «Qo‘shiq va raqs» (1981), nay va orkestr uchun «Armug‘on» (1990), rubob - prima va orkestr uchun «Naqsh va tarona» (1990), qonun va orkestr uchun «Tarona va ufor» (1992), dutor va orkestr uchun “Sharqona navo”, “Arirang jozibalari” (2004) asarlari, turkman kuylari asosida “Fantaziya” (2000), orkestr uchun Syuita (1983), «Muborakbod», “Tasanno” uvertyuralari “Tasnif” va “Ufor” asarlari, fortepiano va orkestr uchun «Yoshlik bayrami» (1985) konsertnosi, ovoz va orkestr uchun M.Ali so‘ziga «Noma’lum soldat xotirasi»ga (1986) poemasi, orkestr uchun «Konsert» (1990), rubob va orkestr uchun «Konsert» (1991), fortepiano va orkestr uchun «Fantaziya» (1993), «Arabcha raqs», «Yaponcha raqs», «Oydin kecha» (xitoy kuylari asosida) (2001), “Sirli tun” (2004), “To‘y hangomasi” (2005), “Bayramona” (2006), “Toshkent fasllari” (2010), “Shahrizoda hikoyalari” (2009), yapon kuyi asosida “Sakura” (2012), ovoz va orkestr uchun Navoiy g‘azaliga «Poema» (1990), xonanda, xor va orkestr uchun Y.Muqimov so‘ziga «Bahouddin Balogardon»

(1993), J.Jabborov so‘ziga «Sohibqiron abadiyati» (1996) va T.Niyoz so‘ziga «Istiqlol» (1998), Y.Muqimov so‘ziga “Xojai Jahon” (2007) oratoriyalarini yozdi. Bu asarlar orkestr repertuarlarini boyitish bilan bir qatorda Oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari repertuarlariga kiritilgan.

H.Rahimov damli cholg‘ular xususiyatlarini, cholg‘ulashtirish yo‘llarini puxta o‘rganib, bu borada ham katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Kompozitor damli cholg‘ular orkestri uchun «Shodiyona» (1982), «Tong» (1987) uvertyuralarini, «Yumoreska» (1985), «Skertso» (1986), «Raqs» (1987), «Yoshlik» (1987) pyesalarini, 2 ta syuita (1989, 1990), 3 ta marsh (1993-95) yaratdi. 1988-yili damli cholg‘ular orkestri partiturasini o‘qish uchun «Majmua» (Xrestomatiya) tuzdi.

H.Rahimov 1975-yili Uyg‘un bilan hamkorlikda «Parvona» nomli ilk musiqali dramasini yozdi. Kompozitorning «Ona qalbi» deb nomlangan birinchi operasi shoir Jamol Kamolning «Armon» dostoni asosida yaratilgan. Uning librettosi mashhur rejissyor F.Safarov qalamiga mansub. Ushbu operaning premyerasi Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatrining kichik sahnasida 1987-yili bo‘lib o‘tdi. Kompozitor yaratgan «Mushkul savdo» (M.Boboev p’yesasi) musiqali dramasi 1989-yili, «Kelin tanlov» (R.Azizxo‘jaev) musiqali komediyasi 1997-yili sahna yuzini ko‘rdi. 1999-yili esa H.Rahimov U.Azimov librettosiga «Alpomish va Oybarchin» operasini, 2012-yilda “Farxod va Sonnyo” baletini yaratdi.

H.Rahimov qo‘shiq va romans janrlarida ham ijod qildi. Muallifning «Sog‘inganda» (1984) nomli to‘plamiga Ibn Sino ruboiylari turkumi, Hamid Olimjonning «Sog‘inganda», Ramz Bobojonning «Uzoqda», «Yulduzlar», «Bo‘ron», «Mening sevgim» kabi romanslari kiritilgan. «Mehrim guli» to‘plamida «O‘zbekiston» (Oybek she’ri), «Toshkent qasidasi» (M.Jabbor she’ri), «Qalbim dunyosi» (Gulruxsor she’ri), «Do‘stlik madhi» (Nazarmat she’ri), «Toshkent-Dushanbe» (Nazarmat she’ri) qo‘shiqlari va «Favvora», «Visol» (B.Boyqobilov she’ri), «Boqishlaring» (Nazarmat she’ri), «Orzu» (Uvaysiy g‘azali) romanslari o‘rin olgan.

H.Rahimovning vatanparvarlik mavzuida bastalagan «G‘alaba bongi», «Askarlar qo‘shig‘i» (Nazarmat she’rlari), «Turkiston marshi» (J.Kamol so‘zi) kabi qo‘shiqlari Respublika qo‘shiq tanlovlarida g‘olib chiqqan.

Kompozitor bolalar uchun ham bir qator qo‘shiqlar yaratdi. Ular orasida «Do‘mboqchalar qo‘shig‘i», «Bog‘cha opam», «Oy bolamiz — toy bo‘lamiz», «Buxoro», «Samarqand» (S.Barnoyev so‘zlari) alohida ajralib turadi. Shuningdek, fortepiano uchun «Al’bom»iga 16 ta asar, fortepiano uchun 18 ta xalq kuylarini moslashtirdi, qashqar rubobi taronalari, dutor, g‘ijjak va fortepiano uchun pyesalar, klarnet va truba uchun sonatalar yozdi.

H.Rahimovning sara asarlari nafaqat O‘zbekiston va Markaziy Osiyo respublikalarida, balki chet ellarda - Rossiya, Turkiya, Misr, Bolgariya, Fransiya, Yaponiyada ham muvaffaqiyatli ijro etilgan.

H.Rahimov 1997-yili «Shuhrat» medali bilan mukofotlandi, 2001yili «O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi» unvoniga sazovor bo‘ldi.

Mustafo Bafoyev



O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi, A.Qodiriy nomidagi Davlat mukofoti laureati, “ASCAP” (Amerika Kompozitorlari, ijodkorlari va noshirlari mualliflik jamiyati assotsiatsiyasi) a’zosi, kompozitor Mustafo Bafoyev 1946-yil 10-noyabrda Buxoro viloyati Kogon tumanida tug‘ilgan. Toshkent davlat konservatoriyasini o‘zbek xalq cholg‘ulari (1977) hamda bastakorlik (1979) ixtisosliklari bo‘yicha tugatgan. O‘zbekiston davlat konservatoriyasi bastakorlik va cholg‘ulashtirish kafedrasi dotsenti (2003).

O‘zbek musiqa san’ati rivojiga katta hissa qo‘shib kelayotgan taniqli kompozitor, jamoat arbobi, ustoz murabbiy. Mustafo Bafoyevning nomi, uning yaratgan mukammal va serko‘lam asarlari nafaqat O‘zbekistonda, balki MDH davlatlari, AQSH, Misr, Germaniya, Fransiya, Turkiya kabi chet ellarda ham keng tanilgan. Jumladan, 1997-yilda Parijda kompozitorning «Buyuk Ipak yo‘li» spektakli prem’erasi bo‘lib o‘tdi. 2000-yilda AQSHning Nyu York shahrida o‘tkazilgan «Buyuk Ipak yo‘li» xalqaro festivalida kompozitorning violonchel’ va xalq cholg‘ulari orkestri uchun «Buxorocha» konsert, 2004-yilda Yaponiyaning Tokio shahrida o‘tkazilgan «Osiyo ovozi» festival va simpoziumida tanbur va simfonik orkestr uchun konsert, 2006-yilda Turkiyaning Antaliya shahrida goboy va simfonik orkestr uchun yaratilgan «O‘rta Yer dengizi to‘lqinlari» konserti muvaffaqiyatli ijro etildi. Kompozitor asarlarining dunyo bo‘ylab yangrashi ulardagi mazmun mohiyat, an’ana va zamon ruhiyatining aks etganligi, insoniyat kamoloti uchun zarur bo‘lgan omillarni o‘zida mujassam etganligi bilan xarakterlanadi. Mustafo Bafoyev «Umar Hayyom», «Ahmad Farg‘oniy», «Lison-ut tayr», «Buxoroi sharif» operalari, 5 ta simfoniya, truba va simfonik orkestr uchun konsert – rapsodiya, «Buxoronoma», «Toshkent haqida qo‘shiq», «Hajnoma», «Zafarnoma» kabi oratoriyalar, xalq cholg‘ulari orkestri uchun 5 ta Konsert, kamer cholg‘u asarlari, 200 dan ortiq vokal asarlari muallifidir. M.Bafoyev janrlarni umumlashtirgan holda yangi yo‘nalishlarni ochishda izlanishlar olib borib, «Nodirabegim», «Ulug‘bek burji», «Moziydan nur» kabi telebaletlarni, «Buyuk Ipak yo‘li» shou-baletini, «Buxoroi sharif» teleopera - dostonlarini yaratdi. Milliy musiqa va folklor meroslariga murojaat etgan holda o‘zbek xalq cholg‘ulari uchun «Bayram» poemasini, «Buxorcha zang», «Alpomishni o‘qigandan so‘ng» kabi yirik asarlarini yaratdi. Bir qator musiqali komediya va dramalarga, kinofilmlarga musiqa yozib, tomoshabinlar e’tiborini qozondi.

M.Bafoyevning asarlari «Mustaqillik» va «Navro‘z» tantanalarida, buyuk allomalarimiz va qadimiy shaharlarimizning yubiley sanalarida muntazam ijro etib kelinmoqda.

M.Bafoyev ijod qilish bilan bir qatorda keng jamoatchilik ishlarida ham faollik ko‘rsatib kelmoqda. O‘zbekiston Bastakorlar uyushmasi kengash a’zosi, respublika tanlovlarida hay’at raisi va a’zosi sifatida muntazam qatnashib keladi.

NAYCHI USTOZLAR

Respublikamizda o‘z nay cholg‘usi bilan shinavandalar qalbidan chuqur joy olgan ustoz naychilar: Abduqodir Ismoilov, Saidjon Kalonov, Dadaali Soatqulov Ayub Qodirov, Hamid Jalolov, Isoq Qodirov, Maxmudjon Muxammedov, Rabbim Hamdamov va Yusufjon Dadajonov, Ahmadjon Dadajonovlarni alohida ta’kidlash joiz.

Abduqodir Ismoilov 1888-yil Qo‘qonda tug‘ulgan. U 13 yoshidan otasi Ismoil Naychidan ,,Tanovar’’ ,,Yovvoyi Chorgoh’’ ,,Dugoh’’ ,,Suvvora’’ ,,Sarbozcha’’ ,,Mirzadavlat’’ ,,Ajam’’ yo‘llarini o‘rgangan. Ahmad qo‘shnay, Yusuf Qiziq, Muhiddin Qori Yoqubov, Tamaraxonim, Usta Olim Komilov kabi san’atkorlar safida bo‘lgan. 1926-yilda tashkil etilgan ,,Etnografiya gruppa’’ safida ansamblda ishlagan. 1927-yildagi Rossiya va Kavkaz gastrollarida qatnashgan. 1928-yilda Samarqand musiqa va xoreografiya institutda, keyin O‘zbek musiqa teatrida (1929-1935) ishlagan. 1935-yildagi Xalqaro raqs festivalida (London) da qatnashgan va oltin medaliga sazovor bo‘lgan. O‘zbek adbiyoti va 1937-yilda san’ati dekadasi va 1930-yildagi teatr olimpiyadasida ishtirok etgan. Xalq kuylari va mumtoz o‘zbek cholg‘u kuylarini fonogrfga yozdirgan. S.Kalonov, A. Qodirov, D. Soatqulov kabi yetuk naychilarga ustozlik qilgan. 1951-yil Toshkentda vafod etgan.

Saidjon Kalonov 1914-yilda Chust tumanidagi Karkidon qishlog‘ida tug‘ilgan. Otasi musiqa ishqibozlaridan edi. U bo‘sh vaqtlarida dutor chalar, o‘g‘li esa zavq bilan tinglardi, ayniqsa, unga nay yoqardi. Nayga ishqiboz bo‘lgan Saidjon qayerda musiqa sadosini eshitsa, o‘sha yerga borar va cholg‘uchilar ro‘parasidan nari ketmay, ular chalayotgan kuylarni diqqat bilan tinglar, hatto ularning har bir harakatini kuzatardi. Musiqaga bo‘lgan havasi tobora ortib bordi, xalq kuylarini qayta-qayta eshitib, ularni yodda saqlab qolishga urindi. Iste’dodli bolani musiqaga havasi va undan mohir sozanda yetishib chiqishi maktab havaskorlar to‘garagiga qatnab yurganidayoq ma’lum bo‘ldi. 1925-yilda uni Toshkent musiqa maktabiga o‘qishga yubordilar. Bu yerda atoqli musiqachilar Abdusattor Vahobov va Shorahim Shoumarov boshchiligidagi milliy cholg‘u asboblari sinfida o‘qiydi. Saidjon Kalonov o‘qishni tugatib milliy ansamblga naychi bo‘lib ishga kirdi. Shu davrda mashhur xalq hofizi Mullato‘ychi Toshmuhammedov va boshqa bir necha atoqli musiqachilar bilan birga ishladi. 1929-yilda Saidjon Mullato‘ychi Toshmuhammedov tuzgan guruh bilan Samarqanga borib, musiqa va xoreografiya institutida, atoqli naychi Abduqodir Ismoilov ustozligida ikki yil o‘qidi, nay chalish sirlarini, sozandalik mahoratini egalladi. Shundan so‘ng mahoratli jamoalarda ishlay boshladi. Farg‘ona ,,Musiqa bo‘limi’’ ning boshlig‘i vazifasiga tayinlandi.

1936-1942-yillar mobaynida O‘zbekiston filarmoniyasida naychi bo‘lib ishladi. 1937-yili Moskvada bo‘lib o‘tgan O‘zbek san’ati va adabiyoti dekadasida qatnashishga muyassar bo‘ldi. Farg‘onada mashxur askiyachi va doirachi Yusufjon qiziq,

xonandalardan Jo‘raxon Sultonov, Ma’murjon Uzuqovlar bilan tanishdi. Toshkentga kelganida esa To‘xtasin Jalilov kabi ustoz musiqachilar davrasida bo‘ldi.

1945-yildan O‘zbekiston radiosi cholg‘u orkestrida sozanda bo‘lib ishladi. Orkestrda yangragan nay sadosi o‘zining ta’sirchangligi va yoqimliligi bilan maftunkor yangraydi. Saidjon Kalonov sozanda bo‘libgina qolmay, moxir bastakor ham edi. “Assalom”, “Yorga istab”, “Vafo qilsang”, “Mexrining payvandimu”, “Dil navozim”, “Bog‘larda gul”, kabi qo‘shiqlar Saidjon Kalonovning ijodiy izlanishlari samarasidir.

Bastakor bir necha kuylar ham yaratgan. Uning “Amrug‘onim”, “Istak” nomli musiqasi konsertlarda bir necha bor yangragan. Saidjon Kalonovning O‘zbek musiqa san’atini rivojlantirishdagi xizmatlari munosib taqdirlanib, u “Hurmat belgisi” ordeni va “Shavkatli mehnati uchun” medali bilan mukofotlandi, “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist” degan yuksak unvonga sazovor bo‘ldi. Mohir sozanda bastakor Saidjon Kalonov peshqadam san’atkorlardan biri edi. U chalgan “Yovvoyi chorgoh”, “Yovvoyi ushshoq”, “Patns ushshog‘i” kabi kuylar xalqimiz qalbidan joy olgan.

Mahmudjon Muhammedov 1916-yil 2-martda Farg‘ona vodiysining go‘zal go‘shalaridan biri –Namangan shahrida, san’atkorlar oilasida tug‘uldi. Otasi- Muhammad Musayev – tanburchi, onasi- Tursunoy Musayeva uy bekasi. Buvasim Raimjon Muhammedov naychi, singlisi-Ma’rifat Muhammedova uy bekasi bo‘lgan. Aslida otasi Muhamad Musayev san’atkor bo‘lmagan, lekin cholg‘u ijrochiligiga mehri baland va tanbur ijrochiligida yaxshigina mahorat egasi edi. Raimjon Muhammedovning ham san’atga qiziqishi yoshlik chog‘idan 1926- yilda boshlangan va xalq cholg‘ularidan nay sozini qunt bilan o‘rgangan. Ukasi Mahmudjonning qo‘liga nay tutqazib, sozga mehr uchqunlarini uyg‘otgan ham akasi Raimjon Muhammedovdir. Shu sabab Mahmudjon akasidan nay ijrochilik sirlarini o‘rgandi. Nayning beg‘uborligi, undan taralishi mumkin bo‘lgan sexrli sadolar Mahmudjonni tobora o‘ziga rom etib bordi. U qayerda bo‘lmasin, maktabdami, mahalladami, uylarning tomlarida o‘yin bilan ovora bo‘lmasin, yaylovlarda, ariqlar bo‘yida o‘tirmasin, qo‘lidan nay tushmadi. Nay ijrochiligi bilan birga o‘sib ulg‘aydi. Nay ijrosini o‘zlashtirgan sari, unga shunchalik bog‘lanib, mehri oshib borardi.

Mahmudjon Muhammedov avvaliga taniqli san’atkor Abduqodir Ismoilovdan, keyinchalik ustoz sozanda Usta Ro‘zimatxon Isaboyevdan saboq olgan. Ustozlar davrasida birgalikda ishlaydi. Uning Namangan shahridagi Alisher Navoiy nomli musiqali drama va komediya teatrida sozandalar ansambli tarkibidagi faoliyati ham ijrochilik an’analarini va musiqa merosini tubdan o‘zlashtirishga zamin bo‘ldi. Bu dargohda u 1941-yilgacha ishlaydi va yilning oxiriga kelib, Toshkentga ishlash uchun taklif etiladi. Ikkinchi jahon urishi yillarida Mahmudjon Muhammedov taniqli san’atkor, xalq artisti Halima Nosirova ansamblida sozanda bo‘lib faoliyat olib boradi.1940-yillarining oxirida Mahmudjon Muhammedov xalq artisti Tamaraxonim ansambliga ishga taklif etiladi. Ushbu jamoa bilan u dunyoning bir qator mamlakatlariga ijodiy safar qiladi. Dunyo xalqlari musiqa san’ati, madaniyati bilan yaqindan tanishadi. O‘zbek musiqa san’atini munosib targ‘ib etishda faol qatnashadi. O‘zining otashnafas ijrosi bilan jahon xalqlarini olqishiga sazovor bo‘ladi.

Dunyo xalqlari musiqalaridan ruhlangan ustoz shunday fikrlarni bayon etadi:

“Men ko‘p mamlakatlarni kezdim va ularni madaniyati, musiqasi, chog‘ulari hamda ijrolariga qiziqdim. Har qaysi mamlakatning milliy ijro uslublarini qanday saqlanishini eshitib, ko‘rib keldim. Masalan: Shanxayda bir asar ijro etilsa, qolgan jo‘r bo‘luvchi sozlar tonikani (fonni) ushlab turadi va bu narsa juda katta bezak bo‘lar ekan.Ansambl jo‘rligi yakka ijrochiga to‘la imkoniyat berilsa, bu kuy ijro etish uchun yengillik yaratadi. Nay sozida ko‘proq Arabiston, Turkiya, Eron, Pokiston, Hindiston,Qashqar umuman sharq davlatlari kuyini juda yaxshi ijro etsa bo‘ladi. Naysimon cholg‘ular Hindistonda raga, Xitoyda fulut, Afg‘onistonda gnula, Indoneziyada suling, Turkiyada bulbul, O‘zbekistonda, Tojikistonda- nay deyiladi. Sharq mamlakatlari, xususan Eron, Turkiya, Arabiston, Hindiston, Pokistonda cholg‘u sozlar ijrochilik uslublari o‘zgacha bo‘lib, turli sozlar improvizatsiya uslubida, navbatma-navbat ijro etiladi. Ayrim mamlakatlarda, xususan Vengriya, Chexoslovakiya, Polsha, Hindiston, Pokistonda, Eron, Turkiya, Jazoir, Malayziyada gastrol safarlarida bo‘lganman. Aslida nayni cho‘ponlar yaylovlarda, tog‘, qirlarda ijro etishgan. Nay sozi ko‘proq yovvoyi, erkin va yakka ijroga xos hisoblanadi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, o‘zbek kuylarini nayda avvalari yakka ijroda, keyinchalik doira bilan va nihoyat, ansambl jo‘rligida ijro etilgan”.

Darhaqiqat nay ijrochiligi tarixiga nazar solar ekanmiz, A. Qodirov, A.Ismoilov, S.Kalonov, Usta qori kabi benazir naychi sozandalarni asosan yakka ijrochi sifatida el orasida mashhur bo‘lganliklarining guvohi bo‘lamiz. Ularning har biri ijrochilikda erishgan uslubi, ijro etgan asarlarini xalqimiz yaxshi biladi. Mening nazarimda bu uslublar hozirgi davrda ham yoshlar uchun ibrat bo‘la oladi. Mahmudjon Muhammedov ijro etgan asarlaridan misollar keltiramiz ,,Dilbarim” (Mahmudjon.Muhammedov),”Nargizitonim va Tasadduq” (T.Jalilov) “Tamanno” (Xalq kuyi) Xalq cholg‘u asboblari ansambli jo‘r bo‘ladi. “Orzu” (T.Jalilov) “Pokiston xalq kuyi”, “Umid” (O‘zbek xalq kuyi) ,,Sitora” (T.Jalilov) Xalq cholg‘u asboblari ansambli jo‘r bo‘ladi. Nodira Qurbonova fortapianoda ijro etgan. Va yana ko‘plab asarlarni ham ijro etgan.

XX asrning 20-yillaridan boshlab nay sozandalar ansambli tarkibida munosib o‘rnini topdi, ommalashdi va bu cholg‘uda mohir sozandalar yetishib chiqdilar. Yu.Rajabiy, R. Hamdamov, M. Muhammedov, D.Soatqulov, M.Toirov, G‘. Jo‘rayev, A. Abdurashidov, A. Sobirovlar shular jumlasidandir.

Dadaali Soatqulov O‘zbekiston xalq artisti, mashhur naychi sozanda, pedagok, kompozitor, jamoat arbobi Dadaali Soatqulov XX asr o‘zbek musiqasi tarixida yorqin iz qoldirdi. U bolaligidan milliy musiqa an’analarida tarbiya oldi. Ko‘p ovozli musiqa san’atining shakli va janr xususiyatlarini o‘zlashtirib, zamonaviy musiqa ijodkorligining rivojlanishiga barakali hissa qo‘shdi. Uning yaratgan jozibali qo‘shiqlari, kuylari, kamer cholg‘u, simfonik va vokal-simfonik asarlari, ayniqsa, musiqali dramalari ijro jamoalar repertuarini boyitdi.

Dadaali Soatqulov 1917-yilda Namangan viloyatining Pop tumanining Pillo qishlog‘ida, dehqon oilasida tug‘uldi. 1924-yili Dadaali Soatqulovni qishloq maktabiga o‘qishga beradi. U 7-sinfni bitirib, 1931-1934 yillarda Namangan shahridagi maktabning Pop tumani bo‘limida o‘qidi. Maktabda o‘qib yurgan yillari nay chalishga qiziqdi. Dadaali badiiy havaskorlik to‘garagiga qatnashadi va tez orada naychi sifatida taniladi. Mazkur maktabda o‘qish bilan bir paytda Pop-Chust

tumanlararo teartrida ishladi. Naychi sozanda bo‘lib shakllanishida bu teatr uning uchun haqiqiy maktab bo‘ldi. 1934-yilda Hamza nomidagi Qo‘qon davlat teatri rahbariyati yosh sozandani ishga taklif qiladi. Tez orada u teartrning musiqa bo‘limi mudiri vazifasiga tayinlanadi. Teartrdagi ishi bilan bir vaqtda u Qo‘qon davlat xotin-qizlar pedagogika bilim yurti va Neft texnikumida badiiy havafkorlik to‘garagini tashkil qildi. Mazkur jamoalarda ishlab yurgan paytlarida qo‘shiq, raqs kuylarini bastalaydi.

1940-yili D.Soatqulov kompozitor bo‘lish niyatida Toshkent davlat konservatoriyasining tayyorlov bo‘limiga o‘qishga kiradi. O‘qish davrida O‘zbekiston radiosi qoshidagi xalq cholg‘ulari ansamblida naychi bo‘lib ishlaydi. Keyinchalik u eslab yozgan edi. “Urishning kasofati bilan konservatoriyadagi o‘qishim 1942-1944-yillarda to‘xtab qoldi. G‘ijjakchi S.Aliyev, rubobchi M.Mirzayev, doirachi Sh. Hamdamov, bayanchi N.Nalevayko, men naychi, laparchi M.Omonova, xonandalar N.Yoqubova, S.Samandorova va raqqosa T.Mahmudovalardan iborat “, “Front konsert brigade”, si tuzildi. Brigadamiz butun 1943-yili va 1944-yilning aprel oyiga qadar Shimoliy-G‘arbiy Belorusiya, Lelingrad, Volxov frontlarida jangchilarga konsertlar berib xizmat qildi. Jangchilarga bergan konsertlarimiz dasturida men yaratgan “Olg‘a bos”, “Vatan uchun”,”Zafar”,”Hujum”, “G‘oliblar marshi“, “Vatan”, kabi vatanparvarlik ruhida bastalagan qo‘shiqlarim ham jaranglar edi. 1944-yilning aprelida vatanimiz jonajon Toshkentga qaytib keldik. Men radiodagi ishimni, konservatoriyada sentabrdan o‘qishimni davom etdim. Davlat imtihon komissiyasiga F.G‘ulom so‘ziga “Paxtakorlar tinchliki uchun” nomli yakkaxon, xor va simfonik orkestr uchun kantatani taqdim etib, konservatoriyani 1953-yili muvaffaqiyatli bitirdim”.

D.Soatqulov konservatoriyani bitirgach, turli mas’ul vazifalarda ishladi. 1953-1959-yillarda M.Qoriyoqubov nomidagi O‘zbek davlat teleradio komiteti badiiy raxbari, 1960-1963-yillarda filarmoniya direktori, 1963-1969-yillar Muqimiy nomidagi musiqali teatr direktori, 1969-1970-yillar filarmoniyaning direktori, 1971-1972-yillar radio musiqiy tahririyatining bosh muharriri bo‘lib ishladi. 1972-1974-yillarda faqat ijod bilan shug‘ullandi. 1975-1985-yillarda Toshkent davlat teatr va rassomlik instituti musiqiy kafedrasida katta o‘qituvchi va dotsent lavozimlarida umrining oxirigacha ishladi. Dadaali Soatqulov 1949-yili “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist”, 1967-yili “O‘zbekiston xalq artisti”, faxriy unvoni bilan mukofotlangan. Bu texnikumda Ma’rufjon Toshpo‘latov, Ostonaqul Nurjonov, Usta Tohir singari tajribakor sozandalar ta’lim berishardi. Usta Tohir nay, rubob singari cholg‘u asboblar yasash bilan ham, tanilgan edi. Ahmadjon Ixtiyorov nota savodidan dars berardi. Ayubjon bir qator xalq kuylarini o‘rganib olgach yosh sozandalar qatoriga qo‘shiladi. Ular Qizil choyxonalarda tashviqot brigadalari bilan konsertlar berishardi.

Ayyub Qodirov atoqli o‘zbek xalq sozandalari Abduqodir Ismoilov va Saidjon Kalonov singari naychilar san’atining davomchilaridir. Ayyub Qodirov 1918-yili Buxoro shahrida o‘qituvchi oilasida dunyoga keldi. Go‘daklik chog‘ida otasi vafot etib, onasining qo‘lida qoldi.

Ayyubjon boshlang‘ich maktabda o‘qib yurgan paytlari qo‘shnisi Abdusamatning nay chalishiga, uning Buxoro shahar musiqa maktabida o‘qishiga havasi kelib yurardi. O‘sha vaqtlarda Buxoro Sharq musiqasi texnikumi musiqaga xohishi bo‘lgan yoshlarni imtihonsiz qabul qilsa-da, haddan tashqari

ozg‘in bo‘lganligi uchun uni „nay puflashga chidamaysan”, deb qabul qilmaydi. Ayyubjon o‘z so‘zida qattiq turib oladi va maqsadiga erishadi. u o‘n yoshida (1928) Buxoro Sharq musiqasi texnikumining talabasi bo‘ladi.

Bu texnikumda Ma’rufjon Toshpo‘latov, Ostonaqul Nurjonov, Usta Tohir singari tajribakor sozandalar ta’lim berishardi. Usta Tohir nay, rubob singari cholg‘u asboblar yasash bilan ham tanilgan edi. Ahmadjon Ixtiyorov nota savodidan dars berardi. Ayyubjon bir qator xalq kuylarini o‘rganib olgach, yosh sozandalar qatoriga qo‘shiladi. Ular Qizil choyxonalarda tashviqot brigadalari bilan konsertlar berishardi.

Oradan ko‘p o‘tmay Ayyubjonning onasi ham vafot etadi. „Gul yetimlik”, ketidan „Shum yetim”lik qismatiga uchragan Ayyubjon butun g‘am-anduhini musiqa bilan yengadi. Erta-kech musiqa bilan mashg‘ul bo‘ladi. Ayyub Qodirov 1934-yili Buxoro musiqa texnikumini tamomlab, shu yerda nay sinfi bo‘yicha o‘qituvchilik qiladi, bundan tashqari hamm qo‘shimcha ishlaydi. 1936-yili Qodirov hayotida muhim voqea sodir bo‘ladi. U o‘n to‘rt nafar yosh sozandalar bilan birga Toshkentga keladi. Muxtor Ashrafiy boshchiligidagi komissiya ularni O‘zbekiston Davlat Filarmoniyasi huzuridagi xalq cholg‘u asboblari ansambliga tavsiya qiladi. Bu ansambl 1937-yili Moskvada o‘tkaziladigan o‘zbek san’ati o‘n kunligiga tayyorgarlik munosabati bilan tashkil etilgan edi. Buxorodan kelgan yoshlar orasida Tovur Jumayev, Said Aliyev, Ergash Shukrullayev, Xayri Izomov, Ibrohim Hamrayev kabi yoshlar bor edi. Yuz kishidan iborat bo‘lgan bu orkestrni To‘xtasin Jalilov boshqarardi, Respublikamizning ko‘zga ko‘ringan sozandalari shu yerga yig‘ilgandi.

Bu katta ansamblda Domla Halim Ibodov, Mulla To‘ychi Toshmuhammedov, Berkinboy Fayziyev, Usta Olim Komilov, Abduqodir Ismoilov, Ahmadjon Umrzoqov kabi ustozlar bor edi. Ayyubjon o‘n kunlikning „Sayil va kolxoz to‘yi” tomoshasida qatnashib, Boyvochcha rolini ijro etgan edi. Ayyubjon dekadadan keyin O‘zbekiston Davlat Filarmoniyasining tashakkurnomasi va soat bilan taqdirlandi. Tamaraxonim ansamblida uzoq yillar (1938-1946) ishlashi sozanda repertuarini yanada boyitdi. Bu ansambl bilan birga sobiq Sovet Ittifoqining ko‘pgina shaharlarida va chet ellarda bo‘ldi. Ular Vatan urushi yillarida ansambl bilan birga Ukraina va Zakavkaze Uzoq Sharq frontlari jangchilariga berilgan konsertlarda qatnashadi. Ayyub Qodirov 50-60-yillarda ko‘pgina chet el safarlarida bo‘ldi. Qohirada, Eronda, Jazoirda, Birmada, Afg‘onistonda va Yevropaning Chexoslovakiya, Vengriya, Polsha singari sotsiyalistik mamlakatlarida o‘z san’atini namoyish etdi. Har bir gastrol safaridan boy taassurotlar bilan qaytdi. Repetuari Hind, Arab, Afg‘on xalq qo‘shiq va kuylari bilan boyitdi.

Sozanda 1950-1956-yillar orasida filarmoniya ishidan ajralmagani holda, konservatoriyaning o‘zbek xalq cholg‘u asboblari fakultetida o‘qib, nay sinfini bitirdi.

Konservatoriyani tamomlagach, Ayyub Qodirov O‘zbek Davlat Filarmoniyasi qoshidagi xalq ashula va raqs ansambliga musiqa rahbari qilib tayinlandi. Bu ansambl nota asosida ish olib bordi. Ansambl 1957-yildagi Butunittifoq ansambllar festivalining laureati bo‘ldi. Shundan keyin Estoniya, Tojikiston, Qirg‘iziston, Turkmaniston kabi respulikalarda o‘zbek musiqasini namoyish qilib, tashakkurnomalar oldi.

Ayyub Qodirov ko‘pgina shogirdlar yetishtirdi. M. Toirov, N. Shokirov, O.Jo‘rayev, Qozoqov kabi naychilar shular jumlasidandir. Ayyub Qodirov kuylarni erkin ijro etadi, ijro texnikasi o‘zining mukammaligi va ijro etilayotgan asar mazmunini chuqur his qilishi, nay ifoda vositalaridan keng foydalanishi bilan ajralib turadi. Uning repertuaruda „Farg‘onacha”, „Subhidam”, „Cho‘li Iroq”, „Chaman yalla”, „Segoh”, „Qaytarma”, „Muborak”, „Tong oromi”, „Muxammasi Husayniy”, „Xayr endi” kabi

klassik kuylar mavjud. Sozanda ko‘p yillik xizmatlari uchun faxriy yorliqlar, medallar bilan mukofotlandi. 1958-yil Respublikada xizmat ko‘rsatgan artist, 1970-yil O‘zbekiston SSR xalq artisti degan yuksak faxriy unvonlar bilan taqdirlandi.

Mirza Toirov 1930-yil 1-yanvarda Toshkent shahrida ishchi oilasida tug‘ildi. 5-6 yoshidan boshlab musiqaga qiziqib borishining asosiy sababi, o‘z hovlisidagi ustuniga osib qo‘yilgan radio karnayi orqali beriladigan konsertlarni muntazam ravishda tinglab borgan. Ayniqsa, yangrab turgan cholg‘ular orasida, naydan chiroyli taralib chiqayotgan tovushi bilan o‘ziga rom etardi. Kunlardan bir kun yosh Mirza ko‘chada o‘rtoqlari bilan koptok tepishib yurgan bir payitda, mahallasidagi Ne’mat ismli o‘rtog‘i kelib, unga koptoginga nay almashmaysanmi dedi, shunda ha deb almashib, o‘sha kundan boshlab uydagi radio karnayi orqali berilayotgan kuylarga qo‘shilib chalishga harakat qildi. Maktabda o‘qib yurgan davrida maktab o‘qituvchisi rasm fanidan dars beradigan Vosiq Xalilov havaskorlar to‘garagida nay cholg‘usidan saboq ola boshladi. Shu vaqtda maktab rahbari To‘lagan Narimonov Respublika pionerlar saroyi direktori lavozimiga tayinlanadi. Shunda, To‘laganov Narimon, Mirza Toirovni pionerlar saroyi musiqa to‘garagiga (1942-yilda) borishni tavsita etadi, shu bilan birgalikda (1943-1947-yillar) Aviasozlar zavodining Madaniyat saroyiga O‘zbekiston xalq artisti, bastakot Hakim Nishonov rahbarlik qilayotgan „Ashula va raqs” togaragiga naychi sozanda sifatida ham qatnashadi.

Hakim Nishonovning tashabbusi va tavsiyasi bilan Mirza Toirov O‘zbek Davlat Filarmoniyasining direktori Muhiddin Qoriyoqubov qabulida bo‘lib, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Ali Ardobus tuzayotgan yangi konsert brigadasiga ishga qabul qilindi. Shu kundan boshlab 1947-yil Mirza Toirov o‘z ijodiy mehnat faoliyatini boshlaydi. Shu yilning o‘zidayoq konsert brigadasi 2 oylik gastrol safari bilan Farg‘ona vodiysiga borishadi. Gastroldan qaytgandan so‘ng, Ali Ardobus ansamblini O‘zbekiston xalq artisti Gavhar Rahimova rahbarlik qilayotgan ansamblga qo‘shib yuborganligi ma’lum bo‘ladi. Shundan keyin Muhiddin Qoriyoqubov yana Miza Toirovni o‘z qabuliga chaqirib – “ikkita ansambl birlashib ketdi, Gavhar Rahimova rahbar etib tayinlandi, xohlasang shu ansamblda yoki bo‘lmasa bizda notali orkestr ham bor, uning rahbari Ashot Ivanovich Petrosiyans, ular seni orkestrda ishlash uchun taklif qilmoqdalar, shu masala bo‘yicha ota-onang bilan maslahatlashib javobini menga ayt” degan edi. O‘sha vaqtlarda changchi – Ahmad Odilov, g‘ijjakchi – Ikrom Islomov, prima rubobchi- Abbos Bahromov doirachi – Abduvohid Yusupovlar orkestrda ishlashar edi. Mirza Toirov ular bilan uchrashib qolib, bo‘lgan voqeani aytib beradi va ularning maslahatlariga ko‘ra hech ikkilanmasdan orkestrga ishga kiradi. Lekin shu vaqt Mirza Toirov nota bilan chalishni bilmasligiga qaramay, yuqoridagi ijrochi-sozandalarning yordamiga tayangan holda, 1947-yildan boshlab orkestrda o‘z mehnat faoliyatini boshlaydi.

Orkestrning rahbari Ashot Ivanovich Petrosiyans 1947-yil Mirza Toirovga Hamza bilim yurtida o‘qish uchun joylashtirishga yordam beradi va o‘zi ustozlik qiladi. Bilim yurtini bitirgach, A.I.Petrosiyans shu bilim yurtida nay sinfini olib borishga taklif etadi. Hamda Toshkent davlat konservatoriyasida o‘qishni davom ettirishini tavsiya etdi va konservatoriyada ham ustozlik qildi. 1956 yil Toshkent davlat Konservatoriyani muafaqiyatli bitirgandan keyin, 1957-yildan boshlab Mirza Toirov Toshkent davlat

konservatoriyada ham nay sinfi bo‘yicha o‘qituvchilik faoliyatini boshlaydi.

Mirza Toirov 1957-yilda Toshkentda o‘tkazilgan 1- ko‘rik tanlovda, shu yilning o‘zida Moskvada bo‘lib o‘tgan VI Jahon yoshlari va talabalari festivalida qatnashib laureatlik unvonlariga sazovor bo‘ladi. Shuningdek, Sochi shahrida „Jahonga tinchlik”, Shimoliy Koreaning Pxenyan shahrida, Germaniyaning Berlin shahrida bo‘lib o‘tgan festivallarda ham faol qatnashib g‘oliblik supasidan o‘rin oladi. Mirza Toirov 1951 va 1959-yillarda Moskva shahrida, 1967-yil Turkmanistonda, 1968 va 1980-yillarda Tojikistonda, 1972-yil Qozoqistonda, Estoniyada, Ozarbayjonda, Mo‘g‘ilistonda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston adabiyoti va san’ati dekadalarida, boshqa xorijiy davlatlarda ham konsert-ijrochilik gastrol safarlarida qatnashadi. Jumladan: Afg‘oniston, Xitoy, Koreya, Mo‘g‘iliston, Yemen, Misr, Suriya, Livan, Mali, Vengriya, Germaniya, Polsha, Ruminiya, Chexoslovakiya mamlakatlarida o‘tkazilgan turli xil tadbirlarda, faol ishtirok etadi.

Mirza Toirovga o‘zbek san’atini rivojlantirishdagi ko‘p yillik samarali mehnatlari uchun O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan 1969-yili – “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist” unvoni berildi. 2001-yili – “El-yurt hurmati” ordeni bilan mukoflandi. Shuningdek, Tojikiston, Estoniya, Mo‘g‘iliston davlatlarining faxriy yorliqlari bilan taqdirlandi. Mirza Toirov 1963-yili Mo‘g‘liston xalq Respublikasi rahbariyati iltimosiga ko‘ra, O‘zbekiston Madaniyat vazirligining tavsiyasiga binoan puflama cholg‘ular bo‘yicha o‘qituvchi sifatida uch yildan ortiq muddat bilan ishga yuborilib, u yerda o‘ndan ortiq yaqin kadrlarni tayyorlaydi, Mo‘g‘iliston xalq cholg‘ulari orkestrini tashkil topishiga yordam beradi.

Mirza Toirovning shu kunga qadar tayyorlagan va tarbiyalagan ko‘p sonli shogitrlari orasida o‘z ijrochilik san’atini ko‘pchilik tomoshabinlarga manzur eta olgan, cholg‘u ijrochilik san’atining mohir ustalari, O‘zbekiston xalq artisti Abdulahad Abdurashidov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar Shukurullo Ahmadjonov, G‘ofur Norboyev, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Halimjon Jo‘rayev, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi Abduvali Hoshimov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Abdurahmon Zavqiyev, Xalqaro va Respublika tanlovlarning laureatlari Abdurahmon Babashev, Botir Dosimbetov, Madina Babasheva, Bohodir Tojimetov, Saida Saidova, Rahim Xolmirzayev, Ne’mat Qosimov, Bekzod To‘rayev, Mirrza Toirov shogirdlari Vetnamda Xon Thay, Xitoyda Ozarbayjonda Ilhom Ibragimovlar o‘zlarini san’atlari bilan holmay tolmay ishlab kelmoqda.

Omon Azizov, Ilxom Javdatov, Ergash Rahimov, Ne’mat Qosimov, Raximbek Xolmirzayevlar, Xonjon Turdiboyev, Surayyo Xo‘jayeva, Barno To‘laganovalar musiqa va san’at kollejlarida, oliygohlarda, Alisher Qurbonov, Bekzod To‘rayev, Hamidullo Karimov, Botir Dosimbetovlar badiiy jamoalarda faol ishlab kelmoqdalar.

Mirza Hakimovich Toirov bir qancha plastinkalar chiqargan bular: “Subhidam”,”Mirza Toirov chaladi” nomlari bilan atalgan (plastinkalar) chiqazganlar, ko‘plab mohirona ijro etgan asarlari radio va televideniya tasmalariga yozib olingan. “Bahor tongi”, “Nay yallasi”, “Bir kelsun”, “Yovvoyi ushshoq”, “Yovvoyi chorgoh”, “Dilbarim”, “Suhbidam”, „Chaman yalla”, „Cho‘li iroq”, „Fasli bahor”, „Tun oqshomi”, „Kichik oqqushlar raqsi” Oqqush ko‘li baletidan „Ispancha raqs”, „Mirodil” „Nagin” hind kinofilmidan kabi bir qancha asarlarni notaga yozib olganlar va ijro qilganlar. Nay uchun musiqa va san’at maktablari, kollejlari, oliygohlari uchun dasturlar, pyesalar to‘plamlarini yaratgan.

O‘quv qo‘llanmada berilgan asarlarni texnik va badiiy o‘zlashtirish uchun MASHQ va ETYUDlar

Etyud №1

Viktor Handamyan




32
37
42
mf
47
f
mf
ff
51
f
55
mf < f
mf < f
59
ff
62
ppp

Etyud № 2

Viktor Handamyan




15
17
20
ff
23
p
26
f
ff
28
pp

Etyud №3

Viktor Handamyan




32
37
42
47
52
57
60

Etyud №4

Viktor Handamyan




33
38
43
48
53
57
61


65
69
73
77
81
86
92
99


106
112
117
121
125
130
135
140

Etyud №5

♩=116

Viktor Handamyan

Nay




31
36
41
46
51
55
60
64
68


72
76
80
84
88
92
96
99

Etyud

Sherzod Sobirov



Etyud №2

Sherzod Sobirov



O‘quv qo‘llanmada berilgan mavzularni mustahkamlash uchun
TESTLAR

---

1. “Maqom, mugam va zamonaviy bastakorlar ijodi” musiqiy tanlovi qaysi shaharda qachon o‘tkazilgan?
   A. Samarqand shahrida, 1988-yil
   B. Toshkent shahrida, 1975-yil
   C. Olma Ota shahrida, 1998-yil
   D. Dushanbe shahrida, 1974-yil

2. Abu Ali ibn Sino o‘zining musiqa haqidagi fikrlarini qaysi kitobida bayon etgan?
   A. “Donishmandnoma”
   B. “Risolayi-musiqiy”
   C. “Qonuni-ilmi”
   D. “Tuhfatu-s-surur”

3. “Kitobu-l-musiqiy al kabir” (Musiqaga oid katta kitob) asari muallifi?
   A. Qutbiddin Sheroziy
   B. Kavkabiy
   C. Darvesh Ali Changiy
   D. Forobiy

4. Toshkent davlat konservatoriyada nay sinfi (“Xalq cholg‘ulari” bo‘limida) nechinchi yilda ochilgan?
   A. 1940
   B. 1941
   C. 1950
   D. 1951
5. Nay sinfida faoliyat olib borgan ilk o‘qituvchi (“Xalq cholg‘ulari” bo‘limida)?
   A. Shukrullo Ahmadjonov
   B. Mirza Toirov
   C. Dadaali Soatqulov
   D. Said Aliyev

6. V. Melkamini qanday cholg‘u mutaxassisligi bo‘yicha konservatoriyada dars bergan?
   A. Fleyta
   B. Goboy
   C. Klarnet
   D. Fagot

7. Qorin bilan ko‘krak qafasini ajratib turuvchi parda qanday nomlanadi?
   A. O‘pka
   B. Bronx
   C. Traxeya
   D. Diafragma

8. Aniq balandlik (musiqali tovush) hamda balandligi noaniq tovush (shovqin)larga bo‘linadigan fan nomi?
   A. Klinika
   B. Logistika
   C. Akustika
   D. Fizika

9. Nota yo‘lida nafas olish belgisi (“V”) nima deb ataladi?
   A. Menzura
   B. Senzura
   C. Lyuft pauza
   D. Sezura
10. Yuz mushaklarida badiiy ifodalash san’ati?
   A. Mimika
   B. Panika
   C. Karma
   D. Darbuka

11. Nay cholg‘usining ko‘rinishi qanday?
   A) Ikkita naychadan iborat cholg‘u.
   B) Bir naydan iborat cholg‘u.
   C) Uchta naychadan iborat cholg‘u.
   D) To‘rtta naychadan iborat cholg‘u.

12. Nay cholg‘usi nimadan yasaladi?
   A) Temirdan
   B) Yog‘ochdan
   C) Qamishdan(bambukdan)
   D) Plastikdan

13. Nay cholg‘usida barmoq bilan nota bosadigan teshikchalari nechta?
   A) 5 ta
   B) 7ta
   C) 8 ta
   D) 6 ta

14. Nay cholg‘usining tovush ko‘lami qanday?
   A) ikki yarim oktava
   B) bir oktava
   C) bir yarim oktava
   D) to‘rtta nota

15. Nay cholg‘usining eng pastki tovushi qaysi?
   A) birinchi oktava do notasi
   B) birinchi oktava lya notasi
   C) kichik oktava lya notasi
   D) kichik oktava si notasi

16. Nay cholg‘usining hamma pardalari bosilganda qanday nota jaranglaydi?
    A) si bemol’
    B) do bekar
    C) lya
    D) fa diez
17. Nay cholg‘usining tovushi nimani ovozi o‘xshaydi?
    A) Erkaklar ovoziga
    B) Hayvonlar ovoziga
    C) Ayollar ovoziga
    D) Bolalar ovoziga

18. Nay cholg‘usining bir qo‘lda chalish mumkinmi?
    A) ikkalasini chalish shart
    B) uchtasini chalish ham mumkin
    C) to‘rttasini chalish shart
    D) bit qo‘lda chalish ham mumkin

19. Nay qanday cholg‘ular guruhiga kiradi?
    A) puflama cholg‘ular
    B) urma cholg‘ular
    C) torli cholg‘ular
    D) hech qaysi guruhga kirmaydi

20. Nay cholg‘usini ansambl va orkestrlarda chalish mumkinmi?
    A) ansamblda mumkin, orkestrda mumkin emas
    B) ansambllar va orkestrlarda chalish mumkin
    C) ansambllar va orkestrlarda chalib bo‘lmaydi
    D) orkestrda mumkin, ansamblda chalib bo‘lmaydi

21. Nay cholg‘usini hajmi qanday?
    A) katta cholg‘u
    B) kisik cholg‘u
    C) o‘rtacha cholg‘u
    D) o‘rtachadan kichik va kichkinadan katta cholg‘u

22. Nay qaysi millatning cholg‘usi?
    A) Ruslarning cholg‘usi
    B) Forslarning cholg‘usi
    C) Turkmanlarning cholg‘usi
    D) O‘zbeklarning cholg‘usi

23. Nay cholg‘usi qachon paydo bo‘lgan?
    A) qachon paydo bo‘lgani noma’lum, ammo qadimiyligi aniq (cho‘ponlar)chalgan
    B) qachon paydo bo‘lgani noma’lum ammo yangiligi aniq
    C) bizga boshqa millatlardan kelib qolgan cholg‘u
    D) qachon paydo bo‘lgani ham, eski yangiligi noma’lum

24. Nay cholg‘usi O‘zbekistonning qaysi viloyatida ko‘proq mashhur?
A) Andijon viloyatida
B) Hamma viloyatlarda
C) Qashqadaryo viloyatida
D) Navoiy viloyatida

25. Mashhur naychilardan kimlarni bilasiz?
A) G‘.Toshmatov, A.Ismoilov, Z.Suyunova
B) T.Jalilov, E.Samandarov, D.Sottixo‘jayev
C) S.Kalonov,M.Muhammedov,M.Toirov,A.Abdurashidov.
D) O.Hayitova, B.Hamdamov, R.Qurbonov

26. Nay cholg‘usini hamma teshikchalarini ochib puflasa qanday tovush hosil bo‘ladi?
A) birinchi oktava re notasi
B) kichik oktava lya notasi
C) birinchi oktava mi notasi
D) ikkinchi oktava sol diez notasi

27. Nay cholg‘usini o‘rganish osonmi yoki....?
A) juda qiyin
B) juda oson
C) boshqa cholg‘ularga nisbatan qiyin
D) boshqa cholg‘ularga nisbatan oson

28. Nay cholg‘usida texnik kuylarni chalsa bo‘ladimi ?
A) boshqa cholg‘ularga nisbatan qiyin
B) harakat qilsa bo‘ladi
C) boshqa cholg‘ularga nisbatan oson
D) juda oson

29. Nay cholg‘usini 5 ta teshikchasini berkitsa qaysi nota..?
A) do
B) lya
C) si
D) re

30. Nay cholg‘usini 3 ta teshikchasini berkitilsa qaysi nota..?
A) lya
B) mi
C) si
D) re

31. Nay cholg‘usini 4 ta teshikchasini berkitilsa qaysi nota jaranglaydi?
A) mi
B) re
C) mi
D) do

32. Tovushlarni ajratib, alohida-alohida, uzib, qisqa ijro etish uslubi?
A) Stakkato
B) Frulatto
C) Legato
D) Merkato

